

## O'qituvchilarga qachon avtokreditlar ajratiladi?

Afsuski, oradan ikki yil o'tgan bo'lsa-da, yuqoridagilarning hech biri bajarilmadi. To'g'ri, avtokreditlar ajratildi, lekin juda oz miqdorda ajratilganligi uchun o'qituvchilar bu xabarni eshitishga ham ulgurmasdan belgilangan limit tugadi.

4-bet

## Meni o'ylantirgan ikki holat

O'qituvchiga obuna to'g'risida gap boshlashingiz bilan majburiy emas, portalgacha chiqaman, deydi. Hatto bilimsizligini, ko'proq o'qishi, izlanishi lozimligini aytasangiz-da, Yurtboshimiz o'qituvchi qadrini oshirayotganda siz nimaga meni tahqirlaysiz deguvchilar topilayapti. Tinch qulog'im deydigan bo'ldik.

7-bet

## "Ma'rifat" yulduzlari

Gazetamizda o'z ijod namunalari bilan qatnashib, ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari, takliflarini ilgari surib kelayotgan faol muallimlar talaygina. Ammo har yilning o'z topidqlari bor. 2020-yilgi "Ma'rifat" yulduzlari ham biz uchun shu yilda kashf etilgan faol mushtariylarga aylanishdi.

8-9-betlar


Kuch — bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 6-yanvar, chorshanba № 1 (9326)

Xalq ziyolilari gazetasi

**ILM:** zarurati, mashaqqati, rohati



10-bet

Mushtariy muhokamasi

## Davlat imtiyoz bersa, o'qituvchi mavqeyi ham oshaveradi



Gazetamizda o'qituvchining obro'si, moddiy va ma'naviy imtiyozlarini oshirish, haq-huquqlarini himoya qilish masalasi ko'p ko'tariladi. Zero, nashrimizning asosiy maqsadi ham muallimlarga tayanch bo'lishdir. Oxirgi yillarda o'qituvchining maoshi oshgani-yu, bir qancha imtiyozlarga ega bo'layotgani haqida ko'p gapirila boshlandi. Hatto, uning maoshi 1000 dollar bo'lishi atrofidagi mish-mishlar axborotlarni chala-chulpa o'qiydigan ayrim odamlar nazdida haqiqatga ham aylanib bo'ldi. O'qituvchining moddiy-ma'naviy turmushi yaxshilanishi, obro'si oshishi, maktablarda bilimli, malakali mutaxassislar ko'payishi, yoshlar orasida o'qituvchilik kasbini egallashni istovchilar ortishi uchun yana nimalar qilinishi kerak? "Ma'rifat" mushtariylari telegram guruhida kechgan bahs-munozarani gazetamizga muhrlashni lozim topdik.

3-bet

Bizni internetda ham kuzating! [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz) [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) @marifatziyo

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Bir yildirki, o'qituvchilar 823-qarordagi maqola yozish bandi haqida o'z fikrlarini ijtimoiy tarmoqlarda bildirishyapti. Bu faqat necha yildan beri hech kim majburlamas ham, rag'batlantirmasa ham, darsidan ortib, gazet-jurnalga obuna bo'lib, ijod qilib kelayotgan ustozlar uchundir balki. Har kim o'z qobiliyati va mahoratiga mos band bo'yicha ball olishga intilishi lozim. Kimlardir maqola chiqarish uchun turli usullarda urinib ko'rishi, "iltimos"lar ko'payishi sir emas. Shu bois qarorga o'zgartirish kiritilib, bu band olib tashlangani ma'qul bo'ldi, ochig'i.

Go'zal PINYOZOVA

Maktablarda variativ sinflar tashkil etilgani ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. Bu sinflarda asosan ona tili dars soatlari chuquroq o'qitilmoqda. Ammo sinf o'quvchilarining soni ko'pligi bois mavzularni to'liq tushuntirish va tahlil ishlarini yakunlash imkoniyati kam. Bitiruvchi o'quvchilar uchun ona tili darslarini ikki guruhga bo'lib o'tish taritibini har bir o'quv muassasi o'z imkoniyatidan kelib chiqib yo'lga qo'ysa ayni muddao bo'lardi.

Xurshida RAHMONOVA

Aslida maktab rahbarlari xolis, ish-bilarmon va ziyoli shaxs bo'lishlari kerak. Ayrim hollarda direktorlarning ota-onalar oldida jamoadagi pedagogni qattiq koyishi yoki qo'shimcha daromad manbayidan fidoyi muallimlarni rag'batlantirmasligi muassasadagi ishchan muhitga ta'sir etishi mumkin. O'qituvchini faqat moddiy emas, ma'naviy qo'llab-quvvatlashni ham bilish kerak, nazarimda. Masalan, xodimni o'z tajribasidan kelib chiqib tanlovlarga jalb etish, sinfxonalarni imtiyozli tarzda ijaraga berish kabi imkoniyatlarni taqdim etsa bo'ladi.

Sharifa SULTONOVA

## Munosabat

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida koronavirus pandemiyasi sharoitida o'tgan yilda O'zbekiston iqtisodiyotidagi pasayish jahonning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha past bo'lgani, ayniqsa, transport infrastrukturasini va qurilish sohasida katta yutuqlarga erishilgani, Toshkentda metallurgiya zavodi ishga tushirilgani, Qashqadaryoda avia va boshqa yoqilg'ilar ishlab chiqarish kompleksi qurilayotgani, bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz iqtisodiyoti chegaralar butkul yopilgan sharoitda ham mustaqil rivojlana oladigan hodisa ekanligini mamnuniyat bilan qayd etdi.

## Umidbaxsh yil

Koronavirus O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini ham imtihondan o'tkazdi. 2021-yil sinovlar yilining davomi bo'ladi. Ana shunday bir sharoitda aholi salomatligini saqlash muhim va ustuvor vazifalardan biriga aylandi. 2021-yil shuning uchun ham "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilindi.

Shuningdek, Prezidentimiz Murojaatnomada davlat boshqaruvining o'rta va quyi vakillari orasida zamonaviy bilimlarga ega bo'lmagan rahbarlar ham borligi, bu korruptsiya va boshqa noxush vaziyatlarni keltirib chiqarayotganligini alohida ta'kidladi. 2021-yil aynan o'rta va quyi boshqaruv vakillarini o'qitish va qayta tayyorlash yili bo'lishini uqtirdi. Bu ham yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatining bir qismi bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, Murojaatnomada ta'lim, sog'liqni saqlash,

iqtisod, aholini ijtimoiy himoyalash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, mahalla institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalariga ham alohida to'xtalib o'tildi. Ayniqsa, 2021-yil oxirigacha bolalarning 65 foizini, 2023-yilgacha 75 foizini maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'zda tutilgan. Yangi umumta'lim va Prezident maktablari ochiladi. Kelayotgan yilda fizika fanini rivojlantirish va shu fanga ixtisoslashtirilgan maxsus maktablar ochilishi ham rejalashtirilgan. Shuningdek, faoliyat yuritayotgan 187 ta texnikum yo'nalishi bo'yicha oliy o'quv yurtlariga birlashtiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimiz Murojaatnomasi aniq va umidbaxsh rejalariga boy bo'ladi.

Abduhakim MAMANAZAROV,  
MDUning Toshkent shahridagi  
filiali rahbari o'rinbosari,  
iqtisodiyot fanlari nomzodi,  
dotsent

## Ta'lim takomilida yangi tamoyil

Mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlisga qilgan navbatdagi Murojaati viloyatimizdagi barcha aholi qatlami, keng jamoatchilik vakillari, faollari qatori ziyolilarni ham nihoyatda to'liqlantirdi.

Respublikamizda o'tgan yili amalga oshirilgan islohotlar yakuni va xalqimizning yangi 2021-yildagi strategik maqsadlarini o'zida mujassam etgan Murojaatnomada davlat va jamiyat hayotiga oid barcha sohalar tabilii qamrab olingani bilan ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbari ushbu Murojaatda respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hamda madaniy sohalaridagi islohotlar samarasi haqida atroficha fikr yuritib, kelgusida har bir sohada ilmiy boriladigan keng miqyosli tadbirlar ko'lamiga e'tibor qaratish asosida xalqimizga ertangi kunga umid bilan yashashga undaydigan kuch va ruh bag'ishladi. Unda Prezident e'tiboridan chetda qolgan biror jabha qolmadi, jumladan, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ta'lim tizimiga innovatsiyalarni joriy etish, islohotlarga shiddatli tus berilayotgan bir vaqtda jiddiy va dolzarb ahamiyat kasb etayotgani alohida ta'kidlandi. Ayniqsa, mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim tizimidagi darlik va qo'llanmalarini takomillashtirish, bu borada xalqaro tajribalariga tayangan holda milliy modelni rivojlantirish, chet mamlakatlarda malaka oshirayotgan kadrlarni transformatsiya qilish, bu orqali

mutaxassislar raqobatbardoshligini oshirish masalalari tizimda mehnat qilayotganlar uchun dasturlamal bo'lishi shubhasiz.

Joriy yilning "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilinishi bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish bilan birga, sohalar bo'yicha islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi. Keyingi yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilishi haqidagi xabar menimcha barchaga cheksiz quvonch bag'ishladi. Bundan tashqari, kelgusi yilda chetiyomand oilalar qizlari uchun grantlar soni 2 barobar ko'paytirib, 2 mingtaga yetkaziladi va a'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi. Institut rahbari sifatida men ham bu kabi imtiyozlardan boshim ko'kka yetdi, zero biz rahbarlarga ham talabning quvonchini ko'rishdan ortiq baxt yo'q. Yana bir narsani alohida e'tirof etish joizki, Prezidentimiz o'rta maxsus ta'lim muassasalarini — texnikum va litseylar o'quvchilariga ham katta e'tibor qaratib, kelgusi yilda mazkur o'quv yurtlari bitiruvchilari hayot chorrahasida to'xtab qolmay ularni o'z vaqtda oliy ta'limga yoki kasbga yo'nal-

tirishni ta'minlash maqsadida samarali va kerakli tavsiyalarni berdi. Jumladan, 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilib, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliyog' va tarmoq korxonalariga birlashtirildi. Buning ahamiyatli jihati shundaki, oliyog'olarga birlashtiriladigan va o'quv yo'nalishi unga muvofiq bo'lgan texnikum bitiruvchilari boshqa maqsadlarga chalg'imag' iшонch bilan, tizimli ravishda fanlarni o'zlashtirib boradi. Bunda tabiiyki, o'quvchining talaba bo'lish imkoniyati yanada oshadi.

"El-yurt umidi" jamg'arma-si orqali yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining magistratura va doktoranturasida o'qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobar oshirilishi va 30 ta yetakchi OTMga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi berilishi ham oliy ta'lim tizimida oldinga tashlangan katta qadamdir. Bu islohotlarga biz ham institutimiz o'quv-tarbiya tizimida yanada yaxshiroq ko'rsatkichlar qayd qilgan holda munosib javob qaytarishni bosh maqsad etib oldik. 2021-yildagi vazifalarni belgilagan holda, jamoamiz bilan hamjihat bo'lib, yuksak maramlarni egallashga bor tajriba, bilim va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Sharibboy ERGASHYEV,  
Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori

## Ta'lim ravnaqiga munosabat bu

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini barchamiz katta qiziqish bilan tingladik.

Ayni paytda joylarda Murojaatnomani o'rganishga bag'ishlangan turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Jumladan, Bo'stonliq tumanidagi 45-maktabda tashkil etilgan tadbir ham shu mavzuga bag'ishlandi. Unda mahalla faollari, hududdagi tadbirkorlar qatnashdi.

So'zga chiqqanlar Murojaatnomada ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarurligi, mamlakatimiz aholisining yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi bundan buyon ham eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qolishi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, ertamiz egalarni tadbirkorlikka jalb etish, ular bandligini ta'minlash bo'yicha imkoniyatlar yanada kengaytirilishi, turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalariga berilgan imtiyozlar kelgusi yil yakunigacha uzaytirilishi va 20 ming tadbirkorning 400 milliard so'mlik yer va mol-mulk solig'ini to'lash muddatini yana bir yilga uzaytirish Prezidentimiz tomonidan taklif etilganligi ayni muddao bo'lganligi aytiladi.

Davlatimiz rahbari Murojaatida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq yana bir nozik masalaga, jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozimligiga to'xtalib, pedagoglar malakasini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilishini ta'kidladi:

"Ma'lumki, muallimlar hozirgi vaqtda eskicha usulda har 5 yilda malaka oshiradi. Bundan buyon ularning, "hayot davomida o'qish" ta-

moyili asosida, o'z malakasini uzluksiz oshirib borishi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari ham qayta ko'rib chiqiladi.

Yana bir bor takrorlayman, jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur.

Shu bois, o'qituvchi, murabbiy va metodistlar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha boshlagan ishlarimiz kelgusi yilda ham davom ettiriladi. Buning uchun xalq ta'limi xodimlarini rag'batlantirish hududiy jamg'armalariga 330 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, 240 mingdan ziyod maktab o'qituvchilariga sinf rahbarligi uchun ustama to'lovlar 1,5 barobarga oshirilib, budjetdan 400 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratiladi". Ana shu fikrlar maktab o'qituvchi va o'quvchilarini behad quvontirdi. Buni tadbir davomida yigit-qizlarning o'zlari katta hayajon bilan e'tirof etdi. O'qituvchilarimiz o'zlari tanlagan soha, fan sirlarini chuqur o'rganib, mamlakatimiz ta'lim ravnaqiga munosib hissa qo'shishlarini bildirishdi.

Yahyoboy MAVLEDDINOV,  
Bo'stonliq tumanidagi  
45-maktab direktorining ma'naviyat va  
ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosari

"O'tgan yili 1995-yilgacha yurtimizga ko'chib kelganlarga O'zbekiston fuqaroligini to'g'ridan to'g'ri berish tartibi belgilandi. Bu bilan 50 mingdan ortiq shaxslarga fuqarolik olish imkoniyati yaratildi.

## O'z yurtimda musofir edim...

Kelgusi yilda bu ishlarni davom ettirib, 2005-yilgacha mamlakatimizga kelib doimiy yashayotgan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini bersak, nima deysizlar? Bu o'zgarish bilan yana 20 ming kishi O'zbekiston fuqarosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan buyon yurtimizda 15 yil davomida muqim yashagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini berishning doimiy tartibi joriy qilinadi".

Tani boshqa dard bilmas, deydlar. Prezidentimizning Murojaatnomasidan olingan ushbu gaplarni eshitib hech kim menchalik quvonmagan bo'lsa kerak. Bu so'zlar ko'nglimning tub-tubidagi kul qoplagan umid uchunqlarini alangalatdi. Fuqarolikning naqadar buyuk ne'mat ekani, unga erishish mashaqqatini menga o'xshash o'z yurtida musofir bo'lganlar biladi, yelkasini qisib yurganlar biladi.

Qo'shni Tojikiston Respublikasida tug'ilganman. O'zbekistonga ko'chib kelganimga ham 24-25 yildan oshdi. Shu yerda oila qurdim, farzandlarim shu tuproqda tug'ildi. O'zbekistoni hech hayiqmay Vatanim deysizga haqliman. Bu aziz makonni fuqaroligi borlardan kam sevmayman. Ammo o'tgan vaqt mobaynida "Fuqarolingiz yo'q ekan", deya qancha idoralarning eshiklari yuzimga ters yopilmas deysiz. Jonimdan ortiq suyg'an Vatanimda hadiksirab yashadim. Hatto o'z oilam, yaqinlarim, do'stlarim orasida begonaday sezdim o'zimni...

Endi mening ko'ksimga ham shamol tegadigan bo'ldi. Orzularim ushaladi. Barchasi uchun Prezidentimizdan minnatdorman! Tanda jon, belda quvvat bor ekan, o'zim yaxshi ko'rgan soha — xalq ta'limi tizimida elimizga, farzandlarimizga xizmat qilishdan tolmayman.

Gulchiroy RAHMONOVA,  
Sirdaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasi  
Pedagogik-psixologik tashxis  
faoliyatini tashkil etish sho'basini rahbari

## Mushtariy muhokamasi

# Davlat imtiyoz bersa, o'qituvchi mavqeyi ham oshaveradi

## Shoira BOZOROVA, Roman tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi:

— O'qituvchi maoshini maoshga qadar tejab kun kechiradi. Shuning uchun pul yig'ib birdaniga katta mulk va buyumlarni ololmaydi. Shuning uchun ularga maishiy texnika, avtomashina va turar joylar foizsiz kredit bilan berilsa yaxshi bo'lardi. Bu haqda 2018-yili "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarorida ko'rsatma berilgan edi. Ijro qog'ozda qolib ketmasa minnatdor bo'lardik. Aslida o'qituvchi mash-aqqatli mehnatdan so'ng yaxshi dam olib, kuch to'plab yangi o'quv yilini boshlashi kerak. Qo'shni Qozog'istonda yashaydigan tanishlarimning aytishicha, o'qituvchilarga sihatgohlarda dam olishi va yangi o'quv yiliga tayyor bo'lib kelishi uchun alohida pul berilarkan.

## Norchuchuk NORMURODOVA, Shahrisabz shahridagi 16-maktab o'qituvchisi:


— O'qituvchining turmush darajasini yanada yaxshilash u oladigan maoshning miqdoriga bog'liq. Hozir muallimning maoshi ro'zg'or tebratishdan ortmaydi. Ustamamizni berishsa ham rozi bo'lardik. Davlat budjeti ko'tarsa kommunal to'lovlarda yana chegirmalar berilsa juda yaxshi bo'lardi.

## Saidaxon MAMAJONOVA, Chust tumanidagi 2-maktab o'qituvchisi:

— Kommunal to'lovdan imtiyoz berilmasin, mayli, kommunal xizmatni yaxshilab qo'yishsa bas! Elektr, suv, gaz ta'minoti uzluksiz bo'lsa... Qishda toza havoga zormiz, ertalabdan ko'chalarda kuyindi hidi(sovqotmaslik uchun tezak, rezina yoqiladi) odamning ta'bini xira qiladi, shu ahvolda kiyimlarimizgacha yoqimsiz hidga belanib ishg boramiz.

## Feruzaxon PARIPIYEVA, Farg'ona tumanidagi 59-maktab o'qituvchisi:

— Qo'shimcha tadbirkorlikni yo'lga qo'yganda ba'zi ustozlarni hisobga olmaganda, o'qituvchi oylik maoshning o'ziga moddiy jihatdan to'kis yashayapti, deyish noto'g'ri. Shuning uchun kasbimizga havas qilganlar yil sayin kamaymoqda. Balandparvoz gaplar yuqori minbarlarda ko'p aytilsa-da, natijasi deyarli yo'q. Avtomobil sotib olish uchun imtiyozli kreditlar e'lon qilinganda ham xabar maktablarga yetib kelmay turib, imtiyozlar o'z egasini topib bo'lgan edi. O'qituvchi uchun madaniy maskanlar(teatr, kinoteatr, konsertlar) uchun maxsus ruxsatnoma orqali bepul yo'li hech bo'lmasa, chegirmali narxda sotib olish imkoni berilsa, jamiyatda sal bo'lsa-da obro'si osharmidi, deb o'ylayman. O'qituvchi maoshini to'plab ololmaydigan avtomashina hamda uy-joy uchun foizsiz kreditlar joriy qilinishini juda-juda ko'p pedagoglar istashini va bunga ehtiyojmand ekanliklarini bilaman. Ularning davlat hisobidan sog'liqlarini



tiklash uchun kasalxona, sanatoriylarda davolanishlari kabi imtiyozlardan ham umidimiz bor. Lekin bu orzularimdan o'zim ham kulyapman aslida. Har ne bo'lsa ham yaxshiliklardan umidvormiz.

## Sanobar BERDIYEVA, Mirzo Ulugbek tumanidagi 286-maktab o'qituvchisi:

— O'qituvchilar uchun arzonlashtirilgan maxsus kiyim-kechak va oziq-ovqat do'konlari bo'lishini xohlardim;

— bir necha yillar avval o'qituvchilar uchun elektr energiyasi to'lovida chegirma bor edi, shu qayta joriy qilinsa yaxshi bo'lardi.

## Ziyoda MAMAJONOVA, Kosonsoy tumanidagi 28-maktab o'qituvchisi:

— Yoshligimizda shifokor va o'qituvchilarga, ularning farzandlariga havas qilardik. Chunki ular jamiyatda har tomonlama nufuzli kasb egalari edi. Bugunning o'qituvchisiga, birinchi navbatda, ta'lim muassasasida ishlashi uchun eng qulay sharoit kerak: moddiy-texnik baza, issiq xonalar, qulay metodik xizmat va hokazo.

Turmush darajasini yaxshilash uchun esa soliqlar, kommunal to'lovlar, kreditlar uchun imtiyozlar kerak, menimcha. Ota-onalari uzoq yillar ta'lim sohasida yuqori natija ko'rsatib kelayotgan farzandlarga OTMga kirishda ozgina bo'lsa ham imtiyoz kerak. Shunda har qanday o'qituvchi farzandi kelajagi uchun ham zo'r ishlashga majbur bo'ladi. Orzularimiz osmon, ammo imtiyozlarsiz ham kasbini sevib ishlayotganlar juda ko'p. Chunki o'qituvchilik — vijdon ishi.

## Erkinjon YARASHEV, Zarafshon shahridagi 13-IDUM o'qituvchisi:

— Azizlarim! Kasbidan baxt qidirib yurganlarim. Ro'zg'orda birini yetqazsa, birini yetqazolmayotganlarim. Ko'rpani boshiga tortsa oyog'i, oyog'iga tortsa, boshi ochiq qolayotganlarim. O'quvchisiga ta'lim berib, vaqti kelib o'quvchisi imtiyoz beriladigan kasblarda ishlash, o'zi belboqqa yochimaydiganlarim. Bir umr "oddiy muallim" bo'lib yurganlarim. Mashina minishga o'rgatib, o'zi esa piyoda yoki velosipedda yoxud jamoat transportida qatnaydiganlarim. Ishga ham, to'yga ham bir xil kostyumda boradiganlarim. Balandparvoz so'zlariga laqqa tushadi-

ganlarim, men allaqachon ahd qilganman, farzandimni hech qachon o'qituvchi qilmayman. Imtiyozli, moliyaviy tomondan qiynalmaydigan kasb egasi qilaman. Erkak o'qituvchilarga ikki karra qiyin. Ayniqsa, bolalarni, ularga ta'lim berishni "yomon" yaxshi ko'rganidan maktabni tashlab ketolmaydigan mendek erkak muallimlarga juda qiyin.

## Muzaffar ISMOILOV, Andijon tumanidagi 38-maktab o'qituvchisi:

1. Dars stavkasi yuqori sinfda 14, boshlang'ich sinfda 12 soat bo'lishi kerak.
2. Sinfidagi o'quvchilar soni 25 nafardan oshmasin.
3. Darslar faqat bir smenada o'tilsin.
4. Attestatsiyada test 20 foizdan ortmasin.
5. Har 5 yilda bazaviy miqdorda haq qo'shib borilsin.
6. To'garak mash'g'ulotlari uchun haq to'lansin.
7. Sinf rahbarligi uchun yetarli (500 000 so'm) pul berilsin.

Testga asoslangan attestatsiya ijodkorlikni bo'g'adi. Insho, bayon, diktantning ahamiyati pasayib ketdi. O'qituvchilar faqat test yodlashga kirishib ketdi. Bu ma'naviy qarashlarga salbiy ta'sir etmoqda. Qalb qayerda qoladi? Navoiyning g'azalini qoyillatib aytish, uning mohiyatiga yetib, tafakkur qilishning keragi yo'q, testni yechish hisob. O'qituvchi ijodkor deyildilar. Bu yerda ijodkorlik qani?

## Dilfuza SUVONOVA, Yangiyo'l tumanidagi 42-maktab o'qituvchisi:

— Ota-onam oddiy ishchi bo'lishgan. Ammo uyimizga pochta har kuni olti-yettita gazeta, oyda to'rt turdagi jurnallarni tashlab ketardi. Oila davrasida o'qib, subhatlashardik. Shuning uchunmi-kan gazeta, jurnal o'qishni yaxshi ko'raman. Hozirgi vaqtda gazeta, jurnallarning tannarxi ko'tarildi. Ta'limga oid gazeta, jurnallarning hammasiga obuna bo'lgim keladi. Bundan tashqari, boshqa nashrlar ham bor. Ammo... cho'ntak ko'tarmaydi. Agar imtiyoz berilishi kerak bo'lsa, avvalo o'qituvchi uchun eng zarur nashrlarga berilsa. To'g'ri, maktab kutubxonasiga gazetalar keladi. Ammo ularning hammasi bizga kerakli gazetamasda.

## Dilobar BERDIYEVA, A.Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi:

— Shu yil poytaxtda ish boshladim. Birinchi muammo yashash joyi bo'ldi. Poytaxtdagi o'qituvchilarning katta qismi viloyatlardanligini hisobga olsak, uy muammosi qanchalik dolzarb ekanligi ayon bo'ladi. Ayni paytda eng arzon ijara narxi 150\$. Endi o'yab ko'ring, o'qituvchining maoshiga eng kam miqdordagi ijara narxi qanchalik qimmatlik qiladi.

## Ma'muraxon ESHCHANOVA, Xiva shahridagi 17-IDUM o'qituvchisi:

— O'qituvchilar uchun sihatgohlari, kommunal to'lovlar, transport xizmatlari bepul qilib qo'yilsa, farzandlarining OTMga kirishiga imtiyozlar berilsa, keyin shu gaplar xomxayol bo'lmasa...qaniydi!

## Gulshod DADAXO'JAYEVA, Parkent tumanidagi 29-maktab o'qituvchisi:

— O'qituvchining holatidan barcha rahbarlar xabardor. Bizni talaygina va'dalar bilan bir necha yilga jim qilib qo'yish yo'lini ham bilishadi. Indamay kutamiz. Hech qachon 1000\$ maosh olmasligimizni bilamiz, ammo xursand bo'lamiz, balki... deya. Kreditlar-u, shartnoma pullarini to'lashdan ortmaydi o'qituvchining oyligi. Mayli, o'qituvchiga yilda bir mukofot berishmasin, avtomobil minmasin, uylar olmasin, o'sha sitilarni qurib, chet eldan reklama uchun falon pul evaziga aktyorlarni olib kelib chiranayotganlar shu marhamatlarini maktab ta'miriga, moddiy-texnika bazasini ta'minlashga qaratsalar, o'qituvchilar o'z uyini ta'mirlaganidan ham ko'proq quvonardi.

## Mohidil XUSHVATOVA, Izboskan tumanidagi 15-maktab o'qituvchisi:

— O'qituvchi nafaqaga shunday ko'p maosh bilan chiqsinki, pensiyaga chiqqandan keyin ishlashiga hojat qolmasin!

## Gulchehra ASHUROVA, Termiz shahridagi 13-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari:

— O'qituvchining ijtimoiy mavqeyi yurist, sudya... kabi maqomga ega bo'lsa;

— mamlakatda eng ko'p oylik oluvchi kasb egasi bo'lsa;

— avtobus bepul, poyezd, samolyot chiptalarga 50 foiz chegirma bo'lsa;

— teatr, kino, muzeylarga kirish bepul bo'lsa("birinchi qator faqat o'qituvchilar uchun!") degan eslatma yozib qo'yilsa);

— tibbiy xizmat bepul bo'lsa;

— har bir sinfxona rangli printer, kompyuter bilan jihozlangan, wi-fi bo'lsa;

— tajriba almashish uchun har 3 yilda dunyoning eng mashhur maktablariga malaka oshirishga borsa;

— uyining darvozasiga: "Bu xonadonda hech qachon gaz, elektr, suv o'chmaydi. Sababi, bu xonadonda o'qituvchi istiqomat qiladi!" degan yozuv zarhal harflar bilan yozib qo'yilsa!

Bunday imkoniyatlari bor yurtda o'qituvchi bo'lish barchaning orzusiga aylandi.

Zirola MADATOVA tayyorladi.

## Shapaloq

## Archabayram

Bu archa deganlarining mevasi yoʻq. Saratonda bosh suqqali soya topmaysan. Oʻtinlikka desang, bir qarich oʻstirguningcha nevarangdi soqli tizzasiga tushadi. Shu sababdan koʻpchilik qishloqlarda Yangi yil oldi archa bezash udum emas.

Qorboboga kelsak, paxta bilan iyagini ming berkitmasin, bolalar bu maktabning koʻsa qorovuli ekanini bilib olishadi. Kambagʻalning bir toʻyngani boy boʻlgani. Boʻyab bejamay aytganda Yangi yil oqshomida boʻkkuncha yeb ichiladi, tamom vassalom. Shaharda esa boshqacha: archalar bezalgan, qorqiz-u qorbo-bo, karnavallar-u konsertlar...

Kecha shahar vaqti bilan tong sahar — soat toʻqqiz yarimlarda telefonim jiringlab qoldi. Qarasam oʻsha:

— Toshkent sitiya archa qoʻyilibdi, aylangan boraylik...

Shunday sovuqda muhabbat koʻngilga sigʻadimi? Ammo u soʻzlarni shu qadar erkalab talaffuz qildiki, sitiya kirish pulli boʻlgani ham esimdan chiqib, xoʻp deb yuborganimni oʻzim ham bilmay qoldim. Ustiga ustak oʻsha bilan tanishganimizga hali koʻp boʻlmadi. Choʻntakda bir soʻm yoʻq. Xonadoshlardan qarz oldim. Oʻzi Toshkent sitiya borishni u qadar yoqtirmayman. Qurilishida kun oʻtarga mardikorlik qilganimni inobatga olmasa, kirish tekin payti joʻralarimning qistovi bilan bir-ikki borganman xolos. Odamlar uning nimasiga qiziqadi hayronman.

Qishloqdagi besh-olti tirriq echking, qisir sigir, dumsiz eshak, nuray deb qolgan choldevor, otangning eski kalishi, enangning paypoqqa yashirgan puli, suvsizlikdan qaqrab yotgan tomorqa, bore-e mayli, hali qoʻlingga tegmagan bebaho diplomning orqasidan keladigan arzimas oylikni qoʻshsang-da Toshkent sitiydagi chiroyli uylar eshigining tutqichini ham ushlolmaysan. Suqlanib tikilgandan nima foyda?

Tunov kuni televizorda bir ayolning 4 yashar bolasini 1000 dollarga sotayotgani haqida koʻrsatishdi. Men ham shartta choʻtni qoʻlimga olib hisoblay boshladim: Xoʻsh, yoshim 21 da, tishim butun, boʻyim bir-u yetmish besh, ozroq oriqligimni aytmaganda kim sotib olsa ham baraka topadi. Undan tashqari qoʻshiq aytolaman, u-bu narsa yozish qoʻlimdan keladi, mardikorlikka ham ancha tajribam bor... Xullas, barcha karomat-u qusurlarimni qoʻshib hisoblaganda narxim 20 000 dollar atrofida ekan (ke-lisak kami bor. Bozorga qoʻy olib chiqsangiz ham ozroq oshirib aytasiz-ku). Lekin baribir Toshkent sitidan uy sotib olishga yetmaydi (shu qadar arzonligimdan



uyalib ketyapman). Shuning uchun oʻzimni bozorga solmadim. Sitiya borishni nega yoqtirmasligimni tushungandirsiz...

Sochlar taraldi, poson boʻldim (oʻzi birovning kiyimlari menga doim yarashgan). Oʻsha meni bekat yonida kutib turgan ekan. Yonida ikki dugonasi-yu bitta kampir (pishirib qoʻyiptimi bularga!). Pulimning choʻgʻi kamligidan tilim kalimaga kelmay, nima qilarimni bilmay, koʻkara boshladim...

— Tanishing, bu kishi mening xolam boʻladi. Kecha qishloqdan kelgandi. Shaharni bir aylantiray deb olib chiqdim.

— Atta-aang, boshqa qarindoshlaringni ham chaqirmapsan-da. Ozib-yozib bir dunyoga kelibdi. Toshkent sitini koʻrmay oʻtib ketadimi ular?!

Noiloj, bozori oʻtmay qolgan dugonalarga hamroh boʻlishi uchun ziqna joʻralarimni chaqirdim. Endi ikki dunyo oraligʻida soʻnggi yaproqday ilinib turgan manovi kampirga munkillagan cholni qayerdan topaman?!

Men, oʻsha, ikki ziqna-yu dugonalar, qari kampir. 10 000 dan hisoblaganda naqd yetmish ming soʻm. Kassaning yonida hammasi bezrayib turibdi. Koʻngil uchun boʻlsa-da qoʻying-qoʻying, deyish yoʻq. Toʻladim!

Orada boshim ogʻriganini bahona qilib, hozir dorixonaga borib kelaman dedim-u ijara uydan qishloqqa ketish uchun tishning kovagida saqlangan yoʻlkirani olib chiqdim. U ham yetmagandek, doʻkonchidan yana qarz koʻtardim. Ular maza qilib aylandi, men esa...

Hee-e oʻshaniyam, qoʻsha-qoʻsha dugonalariniyam, archasiniyam, Toshkent sitisiniyam...

Hozir ijara uйда moʻltirab oʻtiribman. Yangi yildan mening yagona tilagim necha zamondan beri qoramni koʻrmagan qishloqqa borib kelish. Bechoraning duosi ijobat boʻladi

deydilar. Qani qoʻlingizni oching.

Yangi yildan men yoʻlkira, beva xotinlar er, shoirlar uch-toʻrt qator sheʼr tilaydi. Kattakonlarga yolgʻon, ochlarga yovgʻon bersin. Elektratschilarning uyiga svet, qishloqlarga sham, echkiga tibit, hokimlarga qancha tilasang kam. Oʻchoqqa oʻtin, avtochilarning har biriga 70 xotin, bir mahalla oʻgʻil-qiz, oʻgʻil-qizga kaptiva, xalqqa matiz, niva. Blogerlarning tiliga yara, mollarga kunjara, maddohlarga unvon-u uzunroq til, haqiqatlablarga 10-15 yil. Ayyiqqa asal, artistlarga hangroqi ovozig qoʻshib qichima kasal. Talabalarga mardikorbozordan ish, non kovshashga tish, otasining narxidagi ijara uy, kantrakni toʻlashga bir qoʻra qoʻy tilayman. Oshiqlar yorim deb, bizga oʻxshaganlar (maʼnaviyat, ilm, fikr tuygʻu, xullas hammasiga qoʻl siltab), qorin deb yashayveraylik (Iya, oʻzimizning maktablar qolib ketibdi-ku).

Maktabning narsalarini uyiga tashishga qiynalayotgan qorovulga arava, yoʻrgʻa hangi bilan bitta pishiq xalachoʻp, jismoniy tarbiya mallimning erka uliga 48 toʻp, choʻponga poda, nurayotgan sinfonalarning shiftiga tirab qoʻyish uchun xoda, yomgʻir-qor yogʻib chakka oʻtganda tutib turish uchun besh-oltita togʻora, qushnochlarga childirimga qoʻshib nogʻora, direktorga tekshiruvchilarni xursand qilishi uchun bir-ikki yashik aroq, uni boʻshatmoqchi boʻlib yurgan “zauch”ga qalam va-roq. Maktab bitiruvchilariga shahodatnoma bilan gul, unga qoʻshib Rossiyaga ketishi uchun ozroq pul, shu qatorda bu yil obunasi yurishmagan gazeta-jurnallarga ikki enlik qabr, oʻqituvchilarga sabr, tiliga kelganini qaytarmaydigan shapaloqchilarga insof tilaymiz. Omin!

Arzonboy SARSONBOY  
oʻgʻli

## Oʻqituvchilarga qachon avtokreditlar ajratiladi?

2018-yili chiqqan gap: oʻqituvchilar uchun qulay narxlarda avtokredit va uy-joylar ajratilishi haqida eshitmagan odam yoʻq boʻlsa kerak.

Hatto shu yil 14-avgustda Prezident qarori ham tasdiqlangandi. Unda Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan taqdim etilgan roʻyxat boʻyicha xalq taʼlimi tizimidagi pedagog xodimlarga isteʼmol kreditlari, shu jumladan, avtotransport vositalari sotib olish uchun maxsus jamgʻarma hisobidan 14 foizli 1 yil imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga, dastlabki badal summasi sotib olinayotgan avtotransport vositasi qiymatining 25 foizi miqdorda, tijorat banklari kreditlari hisobiga avtotransport vositalari sotib olish uchun avtotransport vositalari ajratilishi belgilab qoʻyilgan edi.

Undan tashqari, har yili qishloq va shaharlarda namunaviy loyihalar boʻyicha qurilayotgan arzon uy-joylarning bir qismini xalq taʼlimi tizimidagi pedagog xodimlarga 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr hamda birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz stavkasi bilan va keyingi davrda Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida dastlabki badali 10 foiz boʻlgan ipoteka krediti sifatida berish belgilangan. Shuningdek, “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida pedagog xodimlarning oila aʼzolariga issiqxonaga tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yil muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7 foiz stavka miqdorida kreditlar berish tartibi ishlab chiqilishi lozimligi ham koʻrsatilgandi.

Afsuski, oradan ikki yil oʻtgan boʻlsa-da yuqoridagilarning hech biri bajarilmadi. Toʻgʻri, avtokreditlar ajratildi, lekin juda oz miqdorda ajratilganligi uchun oʻqituvchilar bu xabarni eshitishga ham ulgurmasdan belgilangan limit tugadi. Oʻshanda “Malibu”, “Tracker”, “Lacetti” uchun limit belgilanmagan. Hatto bu mashinalarga chegirmalar ham boʻlgan. Lekin aynan oʻqituvchilar qurbi yetadigan “Spark”, “Damas” va “Nexia 3” avtomashinalarini sotib olishga esa chegara qoʻyilgan.

Yaʼni, butun Oʻzbekiston boʻyicha quyidagi avtomobillarga:

“Spark” — 500 ta;  
“Damas” — 1000 ta;  
“Nexia 3” — 3000 ta miqdorida limit belgilangandi.

Shuningdek, bu imtiyozli avtokreditlar faqatgina Xalq taʼlimi xodimlari uchun emas, balki Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi hamda Maktabgacha taʼlim vazirligi xodimlari uchun ham amal qilgan. Bu butun Oʻzbekistondagi oʻqituvchilar uchun dengizdan tomchi degani. Moliya vazirligi, Markaziy bank, “Oʻzavtosanoat” AJ, Xalq taʼlimi vazirligi, Qurilish vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, “Oʻzshaharqurilishinvest” va “Qishloqqurilishinvest” injiniring kompaniyalari oʻqituvchilar uchun qulay narxlarda boʻlgan uy-joy va avtokreditlar masalasini yana bir koʻrib chiqsa yaxshi boʻlardi. Oʻqituvchilarga kredit uchun u va mashinalar berilsa, Markaziy bank ham, “Oʻzavtosanoat” AJ ham foyda qilsa qiladiki, zarar qilmaydi. Kredit uchun deyilyapti, har qalay tekinga berilsin deyilmayapti.

Oʻqituvchi maqomini oshirish kerak deymiz-ku, lekin shu oddiygina kredit masalasi hali ham ijobiy hal etilmaydi negadir.

Ulugʻbek POʻLATOV,  
Xalq taʼlimi Info telegram  
kanali taʼsischisi,  
blogger

Hayotimizni telefon, kompyuter, turli ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilolmay qoldik — mana shu bizning bahonamiz.

Sizga gapim bor


# Tiktok ohanrabosi

**yoxud bilimsizlik tomon ergashayotgan yoshlar**

Qadrli zamondosh!

Shiddat bilan odimlayotgan vaqt mashinasida o'tirib olib, "Tiktok", "You Tube" tarmoqlaridagi oxiri yo'q tomoshalariga berilib, qanday katta bo'lib qolayotganini bilmay qolayotgan yoshlarni ko'ryapsizmi? Kimingiz ularga ota yoki ona, kimingiz qondosh, kimimiz opa-aka, kimimiz tengdosh-do'stmiz, ammo befarqimiz. Hayotimizni telefon, kompyuter, turli ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilolmay qoldik — mana shu bizning bahonamiz.

Uchinchi mingyillik avlodi ijtimoiy tarmoqlar qurshovida voyaga yetmoqda. Blogger, tiktoker, youtuber tushunchalari hali tuzukroq savodi chiqmagan bolalarga ham tanish. To'g'ri, kun talabi bilan yashash yaxshi, ammo biz me'yorni unutib qo'ymadikmikan? Uyimizda wi-fi o'rnatganimizdan beri kitob mutolaasini kamaytirganimiz, yaqinlarimiz muammo-yu fikrlari bilan qiziqmay qo'yganimiz, uzukun uyda bo'lsak-da, faqat ovqat mahali bir joyga to'planib, qolgan vaqtni alohida xonalarda, bo'lak olamlarda o'tkazayotganimizni o'ylashga ham vaqtimiz yetmay qoldi. Kimningdir bolaligi, kimningdir yoshligi, kimningdir o'qib-o'rganish, bilim egallash, kelajakka poydevor qo'yish davri, yana kimningdir ayni bolalarini shirin go'daklik davrida erkalash, tarbiya berish soniyalari bo'lar-bo'lmas videolarni ko'rib, "prikollar"u "pranklar"ga qoyil qolish va boshqalarni ham qoyil qoldirishga sarf bo'lib ketmoqda. Shu behuda narsalar og'ushida kun qanday tun bo'lib qolayotganini bilmay qolamiz.



Mutolaa nimaligini esdan chiqarib, uning o'rni uzluksiz "tiktok" sahifasini tiktilayotgan maktab o'quvchilaridan "Oxirgi marta qaysi sevimli yozuvchingning asarini mutolaa qilding?", "Qozog'istonning poytaxti qayer?", "O'zbekiston nechta davlat bilan chegaradosh?", "Dunyoda nechta okean bor?", deb so'rasangiz, mum tishlab qoladi. Lekin tiktoker oyiga qancha pul topyapti, qanday bachkana, maza-matrasiz videolar tomosha qilgani haqida so'rasangiz, to'xtatib qolmaguningizcha gapiradi.

Tiktok — dunyo bo'ylab eng tez ommalashgan ijtimoiy tarmoqlardan. Uning foydalanuvchilarining 41 foizi 16–24 yoshdagi o'spirinlardir. Tiktok nimaligini kattalardan ko'ra ko'proq yoshlar yaxshi biladi, buning sababi, ilova yaratuvchilari avvalboshdan o'zlarining auditoriyasi sifatida 18 yoshdan kichiklarni tanlagan. "Tiktok"lar kulgili, bachkana hazillar yaratib, ko'proq odamlarni jalb qilish orqali mashhurlikka erishib, ham ko'proq daromad topib, o'zlarini "yulduz" sanayotganlardir. O'smirlarni kuza-tib turib "tik-tok"ning o'ziga tortadigan magniti bormi, deb o'ylab qolasan kishi. Aslida esa bobo-buvilarmiz aytgan gapda jon bor, "Niholni qayerga eksang, o'sha tomon qarab o'sib ketadi". Avji o'qish, ilm sirlarini egallash davrida o'smirlarning o'ziga qo'yib berilsa, turgan gapki, kitob o'qish — murakkablikni emas, bachkanalik — yengillikni tanlashadi. **Ular**

**hozir bilmaydiki, fursat bu g'animat, ertaga oila boqish uchun bir ishning boshini tutay, jiddiy bir inson bo'lay deganda bachkanalik, taqliddan boshqa narsani bilmasligidan afsus chekishini.**

Tiktokdagi "ijod" namunalarni tomosha qilayotgan zamondoshim, undan ko'ra kitob o'qisangiz, gazeta mutolaa qilsangiz bo'lmaydimi? Zeriksangiz, muzey, teatrga boring, sport bilan shug'ullaning, o'zingiz qiziqqan biror hunarni o'rganing.

# Mulla Mubinning falsafasi

Nima desangiz ham, aziz zamondoshim, tilg'iron va fayzbog'ni yaxshi o'ylab topishganda. Dunyoning u chekkasi bilan bu chekkasini bog'lagandan keyin qoyil qolmay iloj yo'q. Do'stlarning unutilib ketganlarini ham so'ramasangda "lo'p" etib chiqarib qo'yaveradi. Yaqinda bir birodarimizdan maktab(sms xabar) oldim. Ayt-sam ishonmaysiz, bu kim deng. Mulla Mubinning naqd o'zi — dunyoga dong'i ketgan "faylasuf".

Qadrli ustozimiz bizga dorulfununning ikkinchi bosqichida falsafadan ta'lim bergan. "Domullo"ning butun semestr davomida hurmat-izzatlarini joyiga qo'ydik va u kishi ham yuqori hurmat ila biz "bedonalarga" dialekt, qarama-qarshiliklar, sifat o'zgarishlari kabi ancha-muncha nimarsalarni o'rgatganday bo'ldi.

Imtihonlar yakunida, albatta, mehmonni kuzatganda ko'nglini xushlaganingizdek, Mulla Mubinni ham "minnatdor" qilib yuborganimiz ayon. Kaminadan sal behurmatlik

o'tganmi, yo to'rt qator mashqlarimiz bilan eslarida qolib-mizmi, saodatli kunlarning birida yod etibdirilar. Samimiy suhbatlarda suhbatdoshimning ilmidan amaliy foydalanish odatim bor. Shu kishi faylasufdirilar, hayotning ma'nosiga boshqacha nazar bilan qaraydirilar, deya dardi hol qilayin dedim. Ammo uning ham bir dasturxon dardi bor ekan.

Bu yog'ini qulog'ingizdagi paxtani olib eshiting. Mulla Mubin har daf'a dorulfununga kiraversalar hovlida oppoq to'p bulut paydo bo'larmish.

"Ol, qulim", deganday etaklariga misqol-misqol oltin to'karmish. Mulla bandasiga Xudoning bergani, deb olaverarmish. Hamkasblariga ham ilinib saxiy domul-lomiz kelasi daf'a bir yosh hamkasbi mulla Lazizjonga oilasiga yordam bo'lar, har holda toza ro'zg'or, deya dorulfunun hovlisiga birga kirmishlar. Bu yog'i ne bo'ldi deb o'ylaysiz? Mulla Laziz etak-etak oltinni ko'z oldiga keltirib, ishonib ishonmay, birida yurib, birida yurmay borar emish. Ko'rsinki, kelsa etak-etak oltin yog'ayotgan bulut u yonda tursin, bir etak go'ngdan ham chorak soat o'tsa ham darak yo'qmish. Bulutni esa Sulaymonning shamoli uchirib ketgani tayin. Mulla Mubin hayratda emas, hasratda "o'lay agar", deb bir hovuch oltin ko'rsatarmish. Mulla Laziz soxta dermish.

Xullas, ertasiga Mulla Mubin bu o'lmagur Lazizning bir gapi bo'lmasin tag'in, deya takror yakka o'zi kelmish. Qarasaki, atrofda kimarsa yo'q, bulut pag'a bo'lib turibdir. Oltinlarni Fayloqusning Doroga yubormish tilla tuxumlariday etakka sochmish. Tekin osh kimga yoqmas! Bulutdan tunovgi ginani unutilib Mulla Mubin shod darsga jo'namish.

Dars esa doimgiday "hurmat-izzat"da kechmish. Mulla Mubin o'ziga tilla hadya qiluvchi bulut musaxxar bo'lmishday tutar. Biroq faylasufmismi, bir yaxshining bir yomonini ham o'ylab mag'zini chaqmaydimi? Nega shunday zamanda faqat unga bu tilsim?! O'ylay-o'ylay aqldan ozay deganda tong oqarmish. Ertasi yana shu hol. Tentaknamo bo'lib, qasrlar solib, "Molibu"larni qo'sha olib, tillo kerakmas desa, o'rgangan devona ko'ngil:

"Hali evaralarining kelajagini ham o'ylasang, ol, ol!", dermish...

Oxiri telbaday bo'lib Mulla Mubin bu kechmishni menga yozmish. Men bechora o'zida yo'q aqlni o'rgatmish: "Qo'ying, domillo, voz keching, bilmas-sizki buning oxiri ne bo'lur va yana bir nimarsalar...?" Mulla Mubin jahli chiqur:

— Nechun hayotni lazzatidan behora qolarman, Xudo berganida, sen devonamisan?

— Unda yuravering, ne qilursiz arzu hol qilib? Tolibi ilmlarga hadya qiling, duosini oling.

— Ey befarosat, qo'lingda turganni sochib ne qilursan, erta bu bulut bormu, yo'qmu. Men o'lsam, hayotdan zavqlanib yashamoqni o'rganishing kerak sen bola hali!

To'g'risi, bu voqeadan so'ng Mulla Mubinning dorulfununida saxiy bulutlar bor ekan, hayotdan zavqlanib yashash mumkinligini anglab yetdim.

Ruxsora IMOMOVA,  
BuxDuning 1-kurs magistranti

Dilafroz ABDURAJABOVA,  
ToshDo'TAU talabasi

# Obrazli fikrlash — eng qimmatli qobiliyat

Obrazli fikrlash — miyada kechadigan murakkab jarayon bo'lib, bolalarda juda yaxshi rivojlanadi. Bunda bola tushunchalar bilan emas, balki rasmlar yoki muayyan obrazlar orqali fikrlaydi. Masalan, quyidagicha savollar beraylik:

1. Tulkinging dumi qanday ko'rinishda?
2. Uyingizdagi mehmonxonaning nechta oynasi bor?

Birinchi savolga javob berish uchun tulki tasvirini miyangizda hosil qilasiz. Shu orqali dumini ta'riflaysiz. Ikkinchi savolga kelsak, avval mehmonxonangizni, keyin undagi derazalarni ko'z oldingizga keltiraysiz va tasavvuringizda oynalarni sanaysiz. Tasavvur esa 80 foiz eslab qolish kuchiga ega. Mana shu obrazli fikrlash deganidir. Obrazli fikrlashning hayratlanarli tomoni shundaki, tulki ham, mehmonxonangiz deraza oynalarini sanashingiz ham reallikda qanday yuz bersa, tasavvurda ham shunday.

Insoning obrazli fikrlashi bo'yicha juda ko'plab izlanishlar olib borilgan va davom etmoqda. Nega bog'cha bolalarining xotirasi kuchli bo'ladi deyimiz? Chunki ular matnli xotiraga o'tmagan, barcha axborotni tasavvur orqali eslab qoladi.

Ko'plab rassom va olimlarning buyuk asarlari haqida bilamiz. Albert Eynshteyn o'z ijodini tasavvur orqali boyitishini aytib o'tgan. U hattoki nisbiylik nazariyasini yaratishda ham yorug'likni tasavvur qilib, so'ng nisbiylik tushunchasini topganini ta'kidlagan.

## Obrazli fikrlash va ta'lim

Bolalarga beshikda alla aytiladi. Alla orqali ona o'z farzandiga kelajakda qanday inson bo'lishi haqidagi orzularini singdiradi. Biroz katta bo'lgach, buvi va bololari turli ertaklar aytib, uning obrazli fikrlash maydonini kengaytirib boradi. Ammo hozir vaziyat o'zgardi. Bolalar uzluksiz tomosha qilayotgan multfilmlar orqali tekin obrazlarga ega bo'lmoqda. Bolalarda faqat multfilm qahramonlarining nutqi va xatti-harakatlari ta'sirini ko'ryapmiz.


Maktab darsliklari va qo'shimcha metodik qo'llanmalar hozirgi zamon bolalarida obrazli fikrlash ko'nikmasini hosil qilish uchun yetarli emas. Ta'lim-

da bolalarning obrazli fikrlashini muhim masala sifatida ko'tarish vaqti keldi. O'quvchilar I-sinfdan obrazli fikrlash orqali muammolarga yechim topishga o'rganishi kerak. Chunki obrazli fikrlash tushunchalar orqali fikrlashdan ko'ra bir necha barobar tez yuz beradi. Bola miyasining o'ng yarimshari faollashadi, ijodkorlik, yaratuvchanlik qobiliyati rivojlanadi. Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, obrazli fikrlashda zaif bolalar keyinchalik hayotning salbiy pozitsiyasini tanlar ekan. Ya'ni, bolalar obrazli fikrlash orqali fikran mustaqil bo'ladi. Hayotda pozitiv pozitsiyaga ega bo'ladi. Aks holda, na ijodkorlik, na ezgulik va na tarbiya masalasida yutuqqa erishib bo'lmaydi. Shuning uchun men savod davrida harflarni obrazli yondashuv asosida o'rgatishni sinab ko'rdim. Masalan, "D" harfi nimaga o'xshashini so'rayman. Bolalar choynak ushlagichi, kamon, piyola va kosaning tik holati

1 ni ustunga, 2 ni oqqushga, 3 ni mo'ylovga, 4 ni stulga (va hokazo) o'xshatish mumkin.



Teshikkulcha  
0



qalam  
1




oqqush  
2



qulf  
6



o'roq  
7



kulcha  
8



havo shari  
9

va kemanding yelkaniga o'xshatadi. "L" harfini esa o'roq, bolta, xokkey cho'pi va buyumlarga o'xshatish orqali harfni yodida yaxshi saqlab qoladi.

Obrazli she'rlerden ham foydalanish mumkin.

- A: Uch oyoqli narvonman,  
A harfiman, polvonman.  
B: Ko'zoynakni ko'rganda,  
Meni yodga olasiz.

Bir tayoq, ikki yoydan  
Hosilligim bilasiz.

Shu o'rinda raqamlarni ham tasavvurda nimagadir o'xshatish orqali o'rgatsak, bola xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga erishish mumkin.

Bu innovatsion usulim juda yaxshi samara berdi. 32 yillik tajribamda o'quvchilar ayrim harflarni adashtirib yoki o'rinni almashtirib eslab qolar hamda bo'g'inlar, so'zlarni o'qishda qiynalar edi. Harflarni obrazli o'rgatishda esa o'quvchilar bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymadi.

Bolalarimizning qay darajada baxtli hayot kechirishlari bugungi ta'lim bilan o'lchanadi. Ularga eng so'nggi, muvaffaqiyatli metodlar orqali ta'lim-tarbiya berishga burchli ekanligimizni his qilgan holda o'z ustimizda ishlashimiz lozim. Yana shuni ham aytish joizki, o'quv jarayonini tashkil etishda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni mustaqil ishlarni bajarishga yo'naltirish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodiy faoliyatga undash, kichik ijodiy topshiriqlar berish yaxshi samara beradi. Lekin ko'p hollarda bolalarning eslab qolishi, ya'ni xotirasi pand berishi o'qibatida o'quvchining bilim olishiga ish-

3-xato: eslab qolish uchun o'rganilgan axborotni to'g'ri takrorlatmasligimiz;

4-xato: noto'g'ri kayfiyat, noto'g'ri vaqt va noto'g'ri joy tanlaganimiz;

5-xato: o'quvchilarning intellektini rivojlantirmayotganimiz.

Bu haqda rossiyalik pedagog Yekaterina Dadonovanning "100 foiz a'lochi" nomli kitobida yozilgan bo'lib, unda bu xatoliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

## Obrazli fikrlash va tarbiya

Biz buvilarmizdan ertak va matallardan eshitib ulg'ayganmiz. Qizlarimizga or-nomus, hayo tushunchalari yoshlikdan Zumrad, Adolat, Zuhra obrazlari orqali singdirilgan bo'lsa, yigitlarimizga uch og'a-ini botillar, Shiroq, Alpomish, Bunyod kabi obrazlar orqali mardlik va jasurlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik me'yorlari singdirilgan. Hozir saviyasiz, tarbiyaviy tomoni ko'rinmaydigan multfilmlar, teleesiallar farzandlarimizga tarbiyaviy bo'lmoqda. Bolalarimizga qaysi obrazni qayta-qayta singdirsak, ularning hayotdagi ideal-lari xuddi shu tarzda shakllanadi.

Xulosa o'rinda shuni aytmoqchimaniki, obrazli fikrlash insonga berilgan eng qimmatbaho qobiliyat. Agar uni bolalikdan to'g'ri tarbiyalay olsak, bizdan beruniylar,

tiyoqi susayadi. Bu esa biz, pedagoglar va ota-onalarning yo'l qo'ygan xatolarimiz tufayli. Masalan:

1-xato: o'quvchilarning "vizual-lar"(ko'rib eslab qoluvchilar), "audiol-lar"(eshitib eslab qoluvchilar) va "kinestetiklar"(ushlab eslab qoluvchilar) kabi xususiyatlarini aniqlay olmayotganimiz;

2-xato: eslab qolishning bir xil usulidan foydalanayotganimiz;

forobiylar, sinolar-u ulug'beklar albatta yetishib chiqadi. Chunki obrazli fikrlash insonning eng kuchli o'ng miya yarimsharida kechadi. Biz bugun rohatlanib foydalanayotgan barcha ixtiro-lar-u kashfiyotlar-ni barchasi obrazli fikrlash mahsulidir!

Saodatxon AKBAROVA,  
Baliqchi tumanidagi 35-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

## Sinab ko'ring

# Matematik bellashuvlarni ko'paytiraylik

Odatda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari yil davomida o'quvchilar bilan birga turli bayram kechalarini ko'p o'tkazadi. Lekin matematikaga oid tadbirlar o'quv yili davomida bir yoki ikki marta bo'ladi. Ushbu fan doirasida ham turli viktorina, bellashuv hamda haftaliklar tashkil etish o'quvchilarning matematik bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

Tayyorgarlik ishlarni o'quv yili boshidan boshlash kerak. Bunda matematika to'garagini-ning imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin. Avvaldan matematika haftaligining ish rejasini to'g'arak ish rejasiga moslab tuzilsa, bu ikki tadbir o'rtasida uzviylik ta'minlanadi. Haftalik o'tkazish rejasini maktab ichki sharoiti, imkoniyatlarini hamda o'quvchilar bilim darajasini hisobga olgan holda, turli variantlarda tuzish mumkin. Haftalik olti kun davom etadi:

Dushanba — yozma ishlar tanlovi.

Seshanba — devoriy gazeta va albomlar tanlovi.

Chorshanba — qo'lda yasalgan ko'rgazmali qurollar tanlovi.

Payshanba — savol-javob kechasi.

Juma — badiiy chiqish.

Shanba — yakun.

Matematika kechasi o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish va uni chuqurroq o'rganishga jalb qilish maqsadida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlardan. Uni bir sinf o'quvchilari bilan yoki yondosh sinflararo "quvnoqlar va zukkolar" bahsi tarzida ham tashkil etsa bo'ladi.

Dasturni she'rlar, boshqotirma savollari, qiziqarli misol bilan yoki hamda matematik o'yinlardan tuzish maqsadga muvofiq. Kechani o'tkazish uchun ajratilgan sinf yoki xona devoriy gazeta, matematikaga xos shiorlar, ko'rgazma va turli qiziqarli topishmoqlar bilan bezalsa yanada yaxshi. Ota-onalar va maktab rahbarlarini taklif etish mumkin.

## "Quvnoqlar va zukkolar" bahsi

Sinf 2 guruhga bo'linadi. Ayrim o'quvchilar kuzatuv-

chi bo'lib qolishi mumkin. O'qituvchi va yuqori sinf o'quvchilaridan hakamlar hay'ati tayinlanadi. Guruhlar uchun qog'ozga yoki doskaga misollar yozib qo'yiladi. Misollarning soniga qarab har bir guruhdan o'quvchilar ajratiladi. Misol yechishda tezlik va aniqlik hisobga olinadi hamda baho beriladi.

I. Kerakli sonlarni va ishoralarni qo'ying:

### Birinchi guruh

20 + □ + □ = 70  
□ + 35 + □ = 65  
□ + □ + 45 = 85  
□ + □ + □ = 90  
□ + □ + □ = 69  
12... 16... 8 = 36  
49... 9... 19 = 21  
2... 0... 15 = 18  
61... 21... 40 = 80  
76... 24... 76 = 24

### Ikkinchi guruh

□ + 21 + □ = 61  
□ + □ - 10 = 40  
86 - □ - □ = 46  
□ + □ + □ = 75  
□ + □ - □ = 70  
13... 20... 17 = 50  
28... 8... 80 = 100  
35... 15... 0 = 50  
80... 40... 12 = 52  
38... 17... 38 = 17

Shundan keyin boshqaruvchilar navbatini bilan "O'yab toping" deb qiziqarli misol va masalalar aytishadi. Qaysi guruh o'quvchilari oldin hisoblashiga qarab baholanadi.

### Birinchi guruhga:

1) Yetti og'a-ini, baravardir boshlari, boshqachadir otlari. Bu nima? (Hafta kunlari).

2) Uchta 2 raqami va amal ishoralari yordamida 24 sonini yozing (22+2=24).

### Ikkinchi guruhga:

1) Bir daraxtda 12 shox bor. Har bir shoxda 30 ta barg bor. Har bir bargning bir tomoni oq,

bir tomoni qora. Bu nima? (Yil, oy, sutka, kun va tun).

2) Kunlarning nomi, sanalarini aytmasdan kema-ke't besh kunni aytib bering (O'tgan kun (yoki avvalgi kun), kecha, bugun, erta, indin).

Guruh a'zolari bir-birlariga beradigan savol va topshiriqlar:

1) 6 ta gugurt cho'pidan bir xil kattalikda 4 ta uchburchak yasang.

2) 9 ta gugurt cho'pidan tarozi yasang.

3) Yilning birinchi yarmida kunlar ko'pmi yoki ikkinchi yarmida?

4) Agar soat qo'ng'irog'i har yarim soatda jiringlaydigan bo'lsa, u sutkasiga necha marta jiringlaydi?

Hay'at a'zolari guruhlarini bergan javoblariga qarab baholaydi va g'oliblarni aniqlaydi. Shuningdek, qatnashchilar o'zaro qo'shiq va she'r aytishlar bilan ham bahslashishi mumkin.

Fotimaxon XO'JANAZAROVA,  
Izboskan tumanidagi  
15-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

# Meni o'ylantirgan ikki holat



Juma kuni kechki beshlarda Toshkentga yo'lga chiqdik. Hamrohlarim o'zimning birinchi o'quvchim — Mirali ukam, ikki talaba jiyanim. Biri Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetida, ikkinchisi Chirchiq davlat pedagogika institutida tahsil oladi. Yo'lga chiqdik deguncha suhbatimiz bolalik xotiralari, kitobxonlik, gazetxonlik to'g'risida bo'ldi.



— Opajon, esingizdami, dadam har oqshom o'zi o'qiydigan gazetadan bolalar to'g'risida ibratli bir hikoyami, nimadir o'qib berardi. "O'sha paytlardayoq boshqa viloyatdagi tengqurlaring nimalar qilishayotgan ekan-a"? Sizlar ham o'qigan kitoblaring to'g'risida xulosalaringni yozib yursalaring, ibratli ish bo'ladi", degandi.

Adashmasam, o'shanda maktabga chiqmas edim.

Uyimiz yonidagi tuproq ko'chada yo'lning o'rtasida yarimta g'isht qo'yib, ikkita "varata" yasardik. Qo'shni yigitlar bilan bo'ladigan futbol o'yinida men darvozabon bo'lardim.

Har oqshom bizni erinmay tinglaydigan dadajonimga barchasini to'qlinlab gapirib berardim. Qo'shni ko'chalardan kelgan bolalar bilan o'yin qizigandan qizir edi. Shunday paytlar ko'rsatuvlar tayyorlashingning sabablari bolalik qiziqishlaring, sportning "ichi" da ulg'ayganing uchunligi quvonchli.

— Dadam har yili dala ishlari kama-yib, sovuq tushdi deguncha o'nlab kitoblari olib kelardi. Har kuni chiroq yorug'ida hammamiz kitob o'qirdik. Har shanba o'qiganlarimizni bittalab so'rab chiqardi.

"Qahramonlarining qaysi xarakteri yoqdi, nima uchun? Nega yoqmadi?" Soatlab har birimiz bilan gaplashardi. Men faqatgina suratini ko'rgan bommni beixtiyor yaxshi ko'rib ketardim. Ehtimol bobom qattiqo'l bo'lman-ganlarida har kuni otasi ichib kelib janjal qiladigan dugonamga rahmim kelgan-day menga achinib o'tirisharmidi, degan

o'ylarimdan ham qo'rqib ketaman.

— Oilaviy kitobxonligimiz sabab maktabni bitirgan zahoti opam ham, olti yoshda maktabga borgan bo'lsam-da, men ham talaba bo'ldik — deb suhbatimizga qo'shildi jiyanim Ruxsora.

Tabiatan og'ir, so'ramasa, gapirmaydigan Pokiza Ne'matova o'tgan yili 181,7, ukasi Shahzodjon 167,3 ball bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi bo'lishida oilaviy kitobsevarligi, internetda muntazam test ishlab, tajribasi oshganini aytib berdi.

To'g'risi, uzoq yo'lga chiqqach, yaqinlaringiz bilan suhbatlashib borish huzurli ekanligini, qolaversa, qachondir bir ko'rpada katta bo'lgan ukalarim oilasida ham "otameros" tarbiyamiz davomiyligini qalban his qilib quvondim. Axir, ayni paytda ota-onamning 10 nevarasi Toshkentdagi turli oliy o'quv yurtlari talabasi.

Har birida notiqlik ishtiyoqi, musiqaga, so'zga "oshiqlik" bor.

Bu degani — qachondir baxshi bobom hassasini do'mbira qilib aytgan dostonlar ohangi, dadam o'tkazgan kitobxonlik gurunglari dan qalbimiz sehrlangani, ma'rifat ila nurlangani sabab bolalarimizda ham davomiyliги ko'ngilni yashnatadi.

Yo'l-yo'lakay telefondagi suhbatlarimni tinglab borayotgan jiyanlarim "Nimaga birinchi bo'lib salom berasiz, keyin alik olasiz?", deb savol berishayapti.

Bobom rahmatli "Birinchi bo'lib salom berganga mingta savob yog'ildi. Har doim birinchi salom berguvchilardan bo'ling", deganlarini eshitganimga salkam yarim asr bo'ldiyov, shunga amal qilaman deyman kulib.

Mirali maktabimizda sport to'garaklari faoliyati, o'quvchilarning qiziqishlari, repitiorlik kurslari haqida qiziqdi. Jurnalist emasmi, qaysi gazetalar o'qishimiz, o'quvchilar kitobxonligi haqida alohida so'radi.

Xudoga shukur, maktab kutubxonasi hamisha gavjum. O'quvchilar o'qigan kitoblari haqida alohida insholar yozishadi. Eng zo'rari "Tong yulduzi" da yoritilayapti. Maktabni shu yil tugatgan olti nafar, oldingi yilgilardan sakkiz nafar o'quvchimiz talaba bo'ldi. Respublikada chop etiladigan to'plamlarga she'rlari kiritilgan o'quvchilarimiz bor. Hindiston, Amerika, Italiya davlatlarida chop etilgan antologiyalarda she'rlari qardosh tillarda e'lon qilingani faxrimiz deyman g'ururga to'lib... Kattaqo'rg'on Toshkent orasidagi olti soatlik suhbatimiz mana shunday kechdi. Shanba kuni "Ma'rifat" dan topgan 24 yillik qadrlar insonim Mahmuda Valiyeva bilan telefonda suhbatlashdim.

Biroz hol-ahvol so'rashgach, suhbat mavzumiz "Ma'rifat", kitobxonlik,

nevaralar tarbiyasida kitobning o'rni to'g'risida bo'ldi.

"Ma'rifat" gazetasi ta'lim tizimining o'taxon nashri. Bu gazeta menga ota qadrton. Sababi ilk bora kichikligimdayoq dadajonim qo'llarida ko'rganman. Salkam qirq yildirki, yo'lchi yulduz bo'lib hayot yo'llarimda nur sochib turadi. Yana qadrliligi shundaki, respublikamizdagi Xalq ta'limi vazirligiga qarashli o'n mingdan oshiq yaqin maktab, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga qarashli yuzlab o'rta maxsus ta'lim maskanlari va institutlarda faoliyat yuritayotgan yuksak salohiyatli fan arboblari, olimlar, ustoq muallimlar faoliyati, ta'limdagi innovatsion texnologiyalarni o'rganish barobarida ko'plab ma'rifatli do'stlar orttirdim. Ulardan biri Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi "Hosildor" MFYda joylashgan 2-kasb-hunar maktabi rahbari Ulug'oy Xudoynazarovadir. U 2017-yil dekabrda buyon mazkur lavozimda ishlab kelmoqda. Ilk bora besh-olti yillar avval gazetada maqolalari bilan, keyinchalik "Ma'rifat" mushitariylari" telegram guruhida ta'lim-tarbiyaga oid xilma-xil fikrlari bilan diqqatimni tortgan yuksak ma'naviyat sohibasi. Biz ikki yilcha oldin yuzma-yuz ko'rishish baxtiga erishgan edik. Shundan beri onlayn hamfikir suhbatdoshmiz. Suhbatlarimiz o'quvchilar, maktab hayoti, gazetaxonlik bilan boshlanib kitobxonlik bilan tugaydi. Toshkentga kelganimni eshitgan Ulug'oy tongdayoq yo'qlab keldi.

na mavsumida ancha faollik qilgandik, sonma-son o'qiyapmiz. Dekabr yakunlanib borayapti, bu yil o'tgan yilgiday avj emas. Atrof maktablardagi kamchilik bizga ham ta'sir o'tkazayotganday. Pandemiya sabab ustama pullari berilmayotganligi (har oyda to'rt yuz minggacha ustama olayotgan o'qituvchilarimiz fikri), ota-onalarning sust-kashligi sabab bu yilgi obunada anchagina orqadamiz. Ta'lim nashrlariga uch-to'rt o'qituvchimiz bittadan, har bir sinf rahbari eng a'lochi o'quvchilariga rag'bat sifatida bir donadan "Tong yulduzi" sovg'a qildi, xolos...

Qo'shni viloyatdan yo'qlab kelgan direktor ukamiz (ismini sir tutishimni aytdi) bilan gazeta targ'iboti to'g'risida suhbatlasha turib, ulardagi ahvol bilan qiziqaman. "Rahbar bo'lganimga uch yil bo'ldi. O'sha yili maktabimizga "Ma'rifat", yana uch-to'rt gazeta kelar edi. Majburiy obuna bekor qilindi, degan gap chiqqandan beri birorta nashrga yozilmaymiz. O'qituvchiga obuna to'g'risida gap boshlashingiz bilan majburiy emas, portalga chiqaman, deydi. Hatto bilimsizligini, ko'proq o'qishi, izlanishi lozimligini aytasangiz-da, Yurtboshimiz o'qituvchi qadriini oshirayotganda siz nimaga meni tahqirlaysiz deguvchilar topilayapti. Tinch qulog'im deydigan bo'ldik.

Ishonmasangiz, bir-ikki holatni aytib beray. O'qituvchiga sal qattiq gapirgani uchun nechta rahbar ishdan olindi.

Nimaga birorta tekshiruvchi rahbarning haqligini, bilimsiz bo'laturib do'q qilayotgan muallim saviyasizligini ko'rsatib bermaydi. Shunday bo'lgach, "men senga indamayman" qabilida ish yuritish tinch ekan-da, ustoz" degach, o'ygata tolamani.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar quyi qatlamga yetib kelmas ekan (internet tezligi yaxshimas qishloq joylarida), muallimlar o'z ustida ishlamas, bilimni boyitib, yangi texnologiyalardan foydalalanib dars o'tayotgan kasbdoshlari faoliyati haqida o'qib, tajriba almashmas ekan, qotib qolamiz-ku.

Stolimda turgan gazetaning to'rt-besh sonini (12 dona "Ma'rifat" olamiz) qo'lga tutqazaman-da, "Men hayotimda nimaki yutuqqa erishgan bo'lsam, "Ma'rifat"ning o'rni beqiyos. Qachondir gazetada maqolalari chiqadiganlarga havas qilardim. Bora-bora men ham ijodkor muallimga aylandim. Bugungi kunda maktabimizda ijodga havasmand o'qituvchi, o'quvchilar ko'paydi. Tumanda ijodga havasi baland o'quvchilari, ijodkor muallimlari ko'pchilikni tashkil qilayotgan maktab ekanligimdan faxrlanamiz", dedim.

"Men albatta "Ma'rifat"ga obuna bo'laman, ustozlarimizni, o'quvchilarni ham ergashtiramam", degan gaplaridan, ezgulik targ'ibotchilari safi bittaga ko'payganidan quvondim.

Ikki muallim bilan ikki xil suhbat mana shunday yakun topdi.

Qaniydi, respublikamizdagi har bir ta'lim muassasasi rahbarlari kamida besh dona "Ma'rifat" gazetasining maktabiga borishini tashkil qilishsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Ilohim ma'rifat yog'dusidan nurlanishni istaydigan qalblar omon bo'lishsin!

Aziza BOYMURODOVA,  
Kattaqo'rg'on tumanidagi  
28-maktab direktori








## Tadqiqotchi jurnalistga maktub



Assalomu alaykum, qadrli hamkasbim! Oliy o'quv yurtidagi to'rt yillik o'qishdan so'ng magistraturaga qabul qilindigizmi, demak, ilm ostonasidasiz, tadqiqot olamiga xush kelibsiz! Chunki magistratura olimlik sari qo'yilgan dastlabki jiddiy qadamdir.



Biroq, unutmangki, jurnalistika sohasi mustaqil institut sifatida jiddiy tadqiqotlarga o'ta muhtoj soha. Amaliy jurnalistikamizda uchraydigan ko'pgina oqsoqliklarga jamiyatning muayyan qatlami qatori ilminiz ham aybdor. Zero, jurnalist ijodi va auditoriya – rahbar, mutaxassis va, oddiy insonlarning unga munosabati, qonunlarni takomillashtirish, matbuot erkinligi muhitini yaratish va mas'uliyat tuyg'usi, tahririyat va uning iqtisodiy rivoji, milliy va demokratik qadriyatlar – jurnalist... xullas, tadqiqot maydoni juda keng va rang-barang.

Magistratura bosqichida ta'lim olishga jazm etganlar orasida "ilmiy izlanish qo'limdan kelarmikan", deya xavotirga tushadiganlar uchraydi yoki, aksincha, ilmiy izlanishlar jarayonidan rohatlanadiganlar bor. Ikkinchi toifa talabalar, ishonib, aslo kam bo'lmaysiz, balki umringiz mazmunga to'ladi. To'g'risi, magistraturada o'qish yillarini mazmunga to'ldirish avvalo o'zingizga bog'liq. Buning uchun, keling, bir ustoz hamkasbimiz ijodi misolida mulohazalarni davom ettirak.

Quyida o'qish-izlanish, fikrlash mashqatlaridan huzur oladigan olim faoliyati misolida tadqiqot nima, haqiqiy olim qanday bo'lishi kerak singari savollarga javob qidiramiz.

Xurshid Do'stmuhammadni ko'pchilik yozuvchi, jurnalist, muharrir, deputat sifatida biladi. Men uning ilmiy tadqiqotga bo'lgan moyilligi xususida to'xtalmoqchiman. Ustozning nomzodlik dissertatsiyasi sof adabiyot mavzusida bo'lsa, doktorlik dissertatsiyasi bevosita jurnalistika, axborot dunyosi muammolariga bog'ishlangan.

Axborot sohasidagi taraqqiyot shiddati hayot haqiqatlarini, yangidan-yangi muammolarni shu qadar jadal kun tartibiga qo'yimoqdaki, ularni ilmiy asosda idrok etish, muayyan muammolarni atroficha tahlil-tadqiq etish, xususan, ilmiy xulosalarni amaliyotga tatbiq etish osonlik bilan kechayotgani yo'q. Yaqindagina mobil telefonlarni faqat aloqa vositasi sifatida ishlatib yurganlar buloguna kelib uning radio, televideniye, magnitofon, videomagnitofon va hokazolarning o'rni bosishini

o'ylashmagan. Vaholanki, buyuk va be-takror Marshall Maklyuen aytmoqchi, har bir yangi axborot vositasi yangi mavzu, yangi muammodir.

Mana shunday bir pallada Xurshid Do'stmuhammad jurnalistning kasb odobi muammolariga doir tadqiqotini doktorlik dissertatsiyasi uchun mavzu qilib oldi. To'g'risini aytganda, ko'pchilik mutaxassislar uchun bu kutilmagan mavzu edi. Shu bilan birga, sohamizda hozirga qadar ilmiy ravishda tilga olinmagan, e'tibor qilinmagan mavzu edi. Vaholanki, jurnalistika va axborotiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, jamiyatimizda, sohamizda kechayotgan jarayonlardan kelib chiqilsa, ayni topilgan dolzarb mavzu ekanligini ko'rish qiyin emas.

Agar magistratura yoki tayanch doktoranturaga endigina qabul qilingan bo'lsangiz, demak, oldingizda, birinchi navbatda, mavzu tanlash masalasi turibdi. Ba'zi yosh tadqiqotchilar mavzu topgandek bo'ladilar, ammo uning dolzarbligini aniqlashga qiynaladilar. X.Do'stmuhammad monografiyaga ("Jurnalistning kasb odobi muammolari". T.: "Yangi asr avlodi". 2007-yil) yozgan kirish so'zida mavzuning nafaqat O'zbekiston, balki dunyo miqyosida dolzarbligini alohida ta'kidlagan. Va ko'plab tadqiqot-u adabiyotlarni izchil o'rganish asosida bunday xulosaga kelgan. Demak, mavzu tanlash va uni ilmiy asoslashda mavjud adabiyotlarni atroficha o'rganish jiddiy ahamiyatga ega. Masalan, ingliz publistisi va siyosiy arbobi Jon Miltonning 1644-yili Angliya parlamentiga matbuot erkinligi haqida yo'llagan murojaati — "Areopagitika" asarini, 1766-yili Shvetsiyada qabul qilingan "Matbuot erkinligi haqida"gi birinchi hujjatdan boshlab shu kunlarga cha jahon jurnalistika ilmidagi tajribalarni o'rganish, tahlil qilish osonlik bilan amalga oshib qolmaydi. Yoki bo'lmasa, AQShning Missuri universiteti olimi Edmond B.Lambetning jurnalist etikasi bilan bog'liq tadqiqotlarini tahlil qilaturib, globallashayotgan dunyoda jurnalistika odobining ahamiyati naqadar muhimligi xususida so'z yuritadi. Chuqur qiyoslar-u tahlillarni quyidagicha ta'riflaydi: natijada olimimiz zamondosh jurnalist zim-

masidagi ulug' missiya "Axborot tarqatuvchi asosiy subyekt — jurnalist. Global miqyosda aytadigan bo'lsak, axborot asrimizning taqdiri ham ko'p jihatdan jurnalistning zimmasida. Axborot madaniyatining ijtimoiy-siyosiy, milliy-mahalliy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, falsafiy, e'tiqodiy, iqtisodiy, umuminsoniy aspektlari haqida ham birinchi navbatda axborot madaniyatini shakllantiruvchi bosh subyekt — jurnalist qayg'urishi kerak bo'ladi".

Filologiya fanlari doktori Xurshid Do'stmuhammad asarlarini o'qiganingizda muvozanat atamasiga ko'p duch kelsiz. Tadqiqotning dastlabki bob "Jahon jurnalistikasi, umuminsoniy qadriyatlar va jurnalist kasb odobi muvozanati" deb nomlangan. Muallif XXI asrga kelib inson faoliyatining barcha sohalarida munosabatlar murakkab tus olganini, bunday sharoitda adolatli muvozanatga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham ortganini va bunda matbuot oldiga qo'yilayotgan vazifalar xususida fikr yuritadi. Jurnalistika sohasi munosabatlardan iborat ekan, bunda turli toifadagi odamlar, oddiy xalq va

jarayonlari milliy matbuotlarning erkinlashuvini taqozo etayotgan bir pallada milliy manfaat mezonlaridan voz kechish to'g'ri bo'lmaydi. Ichki va tashqi omillar o'rtasida mustahkam musharaklik bo'lgani holda muayyan ziddiyatli holatlar ham mavjudligi masalaning jiddiylikidan dalolat beradi. Respublikada olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyati esa ana shu musharaklikni ko'paytirish va ziddiyatlarni mumkin qadar kamaytirish orqali muvozanatga erishishiga bog'liq", degan xulosaga keladi olim.

Bundan tashqari, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jurnalist kasb odobi me'yorlariga ta'siri muammosi, milliy qonunchilikda jurnalist kasb odobi me'yorlarining shakllanishi, kasb odobi me'yorlarining jurnalist psixologiyasi shakllanishidagi ahamiyati, milliy jurnalistikada o'zini-o'zi boshqarish tizimini yaratish muammolari va istiqbol-lari ham har taraflama o'rganilgan, jamiyat ravnaqi uchun muhim xulosalar chiqarilgan.

"O'z kuchi, iqtidori, kasb mahorati, bilim va tajribasiga ishonchsizlik jurnalist

# ILM:

killaridan tortib, tashkilotlar va ularning mas'ullari bilan muloqotda bo'ladigan jurnalistning kasb odobi doirasida muvozanatga erishishi uning bosh vazifasiga, burchiga aylanib qolishini ta'kidlaydi.

Ayniqsa, globallashayotgan dunyoda axborotning ahamiyati, bir butun axborot makonida har qanday milliy jurnalistika o'z o'rniga ega bo'lishi muhimligi, undagi tendensiyalardan boxabarligi, munosib tarzda integratsiyalashuvi zarurligi, jamiyat a'zolarining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bunda umuminsoniylik, xalqchilik, milliylik, ommaviylik kabi ma'lum prinsiplar qatoriga o'ta muhim bo'lgan AXLOQIY-LIK omilini qo'shishni taklif etadi. Uning qanday prinsiplarga asoslanishi kerakligini izohlaydi.

Tadqiqotda jahon jurnalistikasi kasb odobi me'yorlari xalqaro va xorijiy davlatlar kodekslari qiyoslangan, zamonaviy jurnalistikada kasb odobi masalalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va an'anaviy ommaviy axborot vositalaridagi ahvol, internet jurnalistning kasb odobi muammolari tasniflangan, zamonaviy bosqichda milliy mentalitet va milliy qadriyatlar jurnalist kasb odobining negizi sifatida qaralishi zarurligi isbotlangan.

Bugungi kunda demokratik qadriyatlar o'ta sekinlik bilan shakllanishidan ko'pchilik norozi. Bu jarayonning tabiiyligini X.Do'stmuhammad mazkur tadqiqotning "Matbuot erkinligi va milliy qadriyatlar muvozanati" faslida bundan o'n ikki yil avval aytgan edi.

"Matbuot erkinligiga to'liq erishish o'ziga xos murakkab jarayon ekanligini hayot ko'rsatmoqda. Ayniqsa, zamonaviy umuminsoniy tamoyillar, globallashuv

shaxsida ichki erkning yetishmasligi yoki yo'qligi oqibatidir. Bunday psixologik diskomfort holatidagi jurnalist butun jamiyat miqyosida qanday so'z ayta oladi, so'zlarini ko'pchilikka qanday qilib uqtira oladi, qolaversa, fuqarolik jamiyati jurnalistiga aylana oladi?" (O'sha manba. 154-bet).

Kitobda bu savollarga javob bor, uning turli aspektlarini chuqurroq o'rganishga yosh tadqiqotchilar uchun maydon ham mavjud.

Tadqiqot nima va u nima uchun amalga oshiriladi? Albatta, batafsil javobni ikki so'zda jamlash mushkul vazifa. Muhimi shuki, tadqiqotda mavjud muammo tasniflanishi, bartaraf etish yo'llari ko'rsatilishi, aloqibat, kishilik jamiyati hayotini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Ijro hokimiyati isbotlangan va asoslangan tadqiqot natijalarini hayotga tatbiq etish mexanizmini ishlab chiqishi zarurdir.

Hukumat mutasaddilari yuqoridagi ilmiy xulosani o'qigan yoki o'qimaganini hayotda, amaliyotda kechgan voqealardisalar, mavjud ahvol tahlilidan bilib olish mumkin. Bugun Prezident Sh.Mirziyoyev har bir ishni ilmiy asosda tashkil etish zarurligini muntazam takrorlamogda. Misolimizdagi kabi olim xulosalarini hayotga tatbiq etish uchun esa ijro mutasaddillarining dunyoqarashi naqadar yuqori bo'lishi zarurligi anglashiladi.

Kechroq bo'lsa-da, 2019-yilning 17-iyul kuni O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining IV konferensiyasida "O'zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi" (<http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-zhurnalstlarining-kasb-etikasi-kodeksi-24-07-2019>) qabul qilinishida mazkur tadqiqotning o'ni alohida ekanligini ta'kidlashni istardik.

Ustoz olimdan o'rganadigan yana bir ibratli jihatga to'xtalmoqchimiz. Siz o'z mavzuingizni o'rganish, tahlil qilish jarayonida kitob qatrlarida qolib ketgan yoki hech kim e'tibor bermagan topilmalar, yangiliklarni kashf qilasiz. Ularning barchasini ham dissertatsiyaga kiritishning imkoni bo'lmaydi. Uning yana bir tadqiqot-kitobini (Do'st Muhammad X. Axborot – mo'jiza, joziba, falsafa. T.: Yangi asr avlodi, 2013. – 240 b.) o'qisangiz, to'plagan bilimlaringizni kelgusi avlod uchun qanday muhrlab qoldirish mumkinligini anglab yetasiz. Bu kitobga yetarlicha e'tibor berilmayotgan-dek, nazarinizda. Bunga uni o'qigan biz kabi toliblar ilmiy bahs-u munozaralarda kam eslaganimiz sababdir, balki. Yoki ilmiy-tadqiqotga mas'ullarning uni o'qimaganligi, o'qigan bo'lsa-da, uqumaganligi boisdur, balki...

Mubolag'asiz aytish mumkinki, mazkur tadqiqot – monografiya yana bir doktorlik dissertatsiyasiga teng ish. Xurshid Do'st Muhammad ishlarini o'qiganlar esa uning doktorlik uchun yozgan monografiyasiga "sig'magan" fikrlari, qar-

e'tirozlarini bildiradi va bu ham ilmda tabiiy va foydalidir.

Jurnalistikaning uch tayanch asosi – haqqoniylik, hozirjavoblik, xolislik masalasini tahlil etar ekan, quyidagicha asosli xulosa chiqaradi: "Jamiyat a'zolarining axborotga bo'lgan ehtiyojini tezkor va to'kis qondirish, jamiyatni demokratiylashtirish, fuqarolik jamiyatini qurish, axborotlashgan jamiyat barpo etish... yer yuzidagi eng ilg'or xalqlar orzu qilayotgan bu singari oliymaqom darajalarga faqat va faqat axborot siyosati, madaniyati, va albatta, ilmi bilan yetishish mumkin bo'ladi. Chunki sanab o'tilgan maqomlarga ko'tarilgan jamiyat qon tomirida qon emas, axborot, aniqroq aytganda, ommaviy axborot oqadi".

"Sanab o'tilgan maqomlarga ko'tarilgan jamiyat..." qurish uchun kerak bo'ladigan "axborot siyosati, madaniyati, va albatta, ilmi"ni kim o'rganadi, kim uning yechimlarini taklif etadi, kim ularni hayotga tatbiq etadi? Bunday keng ko'lamlilikda nafaqat jurnalistika, balki boshqa ilmiy doiralarda tadqiqotlari, uch ijro hokimiyatining chin amali talab eti-

# zarurati, mashaqqati, rohati

ashlari, ta'bir joiz bo'lsa, kashfiyotlari majmuasidir, degan xulosaga kelishi ham tabiiy. Chunki mazkur asar AXBOROT fenomeniga turli nuqtayi nazardan yondashuv asosida dunyoga kelgan.

Birinchi bobning nomlanishidan oq ("Axborot mo'jiza, joziba, falsafa") fikrimizga dalil topamiz. Bizda jurnalistikada qo'llaniladigan, qolaversa, yangilikdan ajratilgan, ya'ni ahamiyati "pasaytirilgan" oddiy AXBOROTga mo'jizali, jozibali, falsafiy nuqtayi nazardan yondashilmagan edi shu paytgacha.

"Ta'riflarga sig'magan tushuncha" faslida axborot va uning tegrasidagi bahslar haqida fikr yuritilgan bo' borada hali amalga oshirishimiz lozim bo'lgan ilmiy izlanishlar zaruratini oydinlashtiradi. Albatta, axborot tushunchasiga hamma soha bo'yicha bir xil izoh berish qiyindir, biroq OAV uchun eng zarur jihatlar bo'yicha ilm ahli bahslashib, kezi kelganda birlashib, va albatta, bir xulosaga kelib, taomilga kiritishimiz davr talabi.

Axborot haqqoniyligi qonuniyatlarini, shartlari majmuasini yaratish g'oyasi ham juda ahamiyatli. Undan bugungacha axborot erkinligiga doir, davlat xizmatdoshlarining axborotni muntazam ochiqchil borishlari shartlariga doir qabul qilingan qonunlarni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Muallifning milliy ensiklopediyamizdagi "Jurnalistikaning xususiyati, maqsadi jamiyatning ijtimoiy kayfiyatiga bog'liq" degan ta'rifga e'tirozi (voqelikni aks ettirishdan boshqaga yaramaydimi?) o'rinli. Tadqiqot xulosasidan anglashiladiki, jurnalistika atamalarini bo'yicha berilgan bunday fikrlarni qayta ko'rib chiqish vaqti allaqachon yetib kelgan.

Shuningdek, muallif ba'zi olimlar bilan ham bahsga kirishib, o'z fikrlari,

ladi. Aytilganlarning har biri kelgusi tadqiqotlar mavzusi emasmi?

Kitobda raqamli tengsizlik muammosi ilk bor dolzarb mavzu sifatida ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola etilganligini ham ta'kidlash o'rinlidir. Mazkur muammo ham mavzu "izlab" yurgan talabgorlar uchun tayyor izlanishlar maydonidir.

Olim ilmdagi yangiliklar, jurnalistika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tahlil etar ekan, jumladan, bu sohaning alohida fan sifatida tan olinishi uchun kelajakdagi dolzarb vazifalarni belgilab beradi:

- "jurnalistika mutaxassislarining qat'iyatli bo'lmoqligi;
- sohaga doir fundamental tadqiqotlar yaratishni jadallashtirish;
- xalqaro va milliy jurnalistika olamidagi yangiliklarni tendensiya sifatida izchil o'rganish va ommalashtirish;
- jurnalistikaning unga bevosita qo'shni fanlarga nisbatan maqomi va o'rniga aniqlik kiritish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardandir".

Yosh olimlar sovet davridan qolgan jurnalistika ilmini faqat filologik tadqiqotlar bilan cheklanish tizimidan xalos bo'lish zaruratini anglab, hayotga tatbiq etishga erishishlari zarur. Zero, jurnalistikaning iqtisodiy, huquqiy jihatlarini, matbuot tarixi, jurnalist psixologiyasi masalalarini mavjud, qolaversa, davlat siyosati, iqtisodiy, qonunchiligi, ta'limi, ekologiya, zamonaviy kommunikativ vositalar taraqqiyoti... qisqasi, barcha soha bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois bo'lajak ilmiy kengash ana shu jihatlarini inobatga olishi dolzarbdur.

Kitobning "Hayot, matbuot va mentalitet: izlanish silsilasi" bobi muhimligi jihatidan avvalgisidan kam emas.

Olim sho'ro davridan qolgan va bugungi kun talab qilayotgan matbuot



tushunchasiga aniqlik kiritadi, farqlarini ko'rsatadi, boshqacha aytganda, bugun eskicha fikrlashdan judo bo'lolmayotgan katta avlod tasavvuridagi va O'zbekistonni rivojlanayotgan dunyoning ajralmas bo'lgi sifatida bilib, unga hamohang qadam tashlashga kiritishga qiynalayotgan yangicha tafakkurdagi avlod tushunchasidagi OAVning o'ziga xosliklarini ko'rsatadi. Bu juda katta mavzu. U yanada chuqurlashishi, bahs davom etmog'i, sizning tadqiqotlaringizga aylanmog'i darkor.

Muallif "Tekshiruvga muhtoj tekshiruv" faslida tahlilga turgan "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi qonundagi "jurnalist tekshiruv"i bugungi kunga kelib "surishtiruv"ga "aylanib qolgan"ga munosabat bildiradi. Aynan ushbu hol jamiyatning yaqin o'tmishi tahlili asnosida o'rganiladigan va zarur xulosa hamda takliflar beruvchi tadqiqot mavzusi emasmi?

Doktorlik dissertatsiyasi haqida fikrlashganimizda olimning adolati muvozanat borasidagi mulohazalarini ta'kidlagandik. Bu mavzu ikkinchi kitobdan ("Najot – to'rntinchi to'lqinda", 217–237-betlar) ilmiy-ma'rifiy esse sifatida o'rin olgan. Unda muallif o'zining konseptual yangi g'oyalarini ilgari surgan. Ular nafaqat jurnalistlar, balki jurnalistika ilmi uchun ham ahamiyatlidir.

"Ta'kidlash zarurki, axborot sohasida adolat posangisini topish soha doirasidagina hal bo'ladigan masala emas, balki jahon tajribasida kuzatilayotganidek, nihoyatda keng doiradagi ilm-fan, amaliyot vakillarining hamjihatlikda muloqot o'rnatishlarini – izlanishlari va izlanishlaridan kelib chiqadigan natijalarni amaliyotga tatbiq etish bilan ro'yobga chiqadi.

Gap axborot odobi, axborot madaniyati xususida bormoqda..."

Bu ilmiy-ma'rifiy esseni har bir tolibi ilm o'qishini, muallif bilan bahslashishini, o'z haqiqatlarini izlashini, faoliyati uchun zarur xulosalarga kelishini istardik. Hech bo'lmaganda... essening mazkur turi qanday yozilishini o'rganish mumkin.

Kitobning oxirgi ikki bobida berilgan maqolalar va muallif bisotida to'plangan sara fikrlar bir qarashda mazkur tadqiqotga tegishli emasdek. Sirdan shunday ko'rinadi. Aslida ularning barchasi matbuotga bevosita va bilvosita tegishli publitsistik asar hamda hikmatlardir.

Muallifning "Matbuot – muammo – mulohaza" sarlavhali Ahmadjon Meliboyevga maktubini olaylik. Mutolaa taassurotlaridan nafaqat ta'riflanayotgan

kitabni o'qishga rag'bat olasiz, balki olimning shaxsiy xulosalaridan bahramand bo'lasiz.

"Fuqarolik jurnalistikasiga zo'r bersh va milliy yoki global axborot maydonini to'ldirishni faqat shu toifa yasama jurnalistlar ixtiyoriga topshirib qo'yish matbuotni, jurnalistikani havaskorlik darajasiga tushirib qo'yishi muqarrar", deya badiiy publitsistik janrlarda professional jurnalistlarga munosib asarlar yozishi mumkinligini ta'kidlaydi va ularni "o'qish zavqidan nima uchun voz kechmoqlik kerak?!" degan savolni qo'yadi.

"Jurnalistika – shaxs talqinida, taqdirida" deb nomlangan mazkur bobda "Jon Milton va Abdulla Qodiriy: "Areopagitika"dan "Diyori bakr"ga qadar" tadqiqot-maqoladagi nihoyatda salmoqli fikrlar, qiyoslar dunyoqarashingizni kengaytirishi, siz kabi yosh tadqiqotchilarni zalvorli izlanishlarga da'vat etishi muqarrar.

Kitobning oxirgi – oltinchi bobi ("Bisotda yig'ilgan gaplar") ham tadqiqotchi uchun katta manba hisoblanadi. Davrga oid ucta hikmatli misolni o'qiyimiz:

"Gazeta kimningdir xususiy mulki bo'lishi mumkin, lekin matbuot erkinligi hamisha xalqning mulki hisoblanadi".

"Sensatsiyaga mukkasidan ketish axborot erkinligini xavf ostida qoldirishi muqarrar".

"Erkinlikning narxi ancha baland bo'ladi, shu boisdan rivojlanayotgan mamlakatlarda uni qo'lga kiritish uchun mustaqil nashrlarning qo'li kaltalik qiladi".

Bu fikrlarning har biri alohida bir tadqiqot uchun mavzu bo'lishga "haqli" desak mubolag'a bo'lmaydi.

Nomlari keltirilgan ikki konseptual ahamiyatdagi tadqiqot-kitob bilan tanishgan har bir tolibi ilm olimning mavzu doirasida o'qigan adabiyotlari ko'lamini his qiladi. O'rganilgan manbalardan olingan eng sara fikrlar, yangiliklar qiyosidan bahramand bo'ladi, muallifning davr evrilishlari, zamon taraqqiyoti hisobiga boyitilgan mutlaqo yangi xulosalaridan, bugungi jurnalistika ilmi oldida turgan muammolardan ogoh bo'ladi, kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni bilib oladi. Boshqacha aytganda, o'zi olib borayotgan ilmiy tadqiqoti o'zi va sohamiz uchun naqadar zarurligini, bunday izlanish zamirida qanchadanqancha kashfiyotlar va ruhiy halovatlar borligini his etadi.

Halim SAIDOV,  
filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

Tahririyatdan: 8-yanvar kuni uzoq yillar "Ma'rifat" gazetasi tahrir hay'ati a'zosi bo'lgan ustoz ijodkorimiz; tabarruk 70 yoshni to'ldiradi. Atoqli yozuvchi ustoz olimni bu qutlug' sana bilan muborakbod etamiz.

# "Ma'rifat" — 2020" mundarijasi

1-yanvar

Yaponcha ta'lim tarbiyadan boshlanadi (Ruxsora To'ychiyeva).

O'qituvchini qo'riqchilikdan ozod eting! (San'at Obidov).

Geografiya fani qanday o'qitilishi kerak? (Ixtiyor Esonov).

8-yanvar

Variativ o'quv reja haqida nimalar bilasiz? (Hikmatilla Damirov).

Endi ishlamagan tishlamaydi (Dilafroz Bobojonova).

Ilm-fanimiz oyog'idagi tushov (Shohistaxon O'ljayeva).

Qonunbuzar hokimlar  
1000 \$ maoshga qachon yetamiz? (Shahnoza Umarova).

Dunyo e'tirof etgan shveysarcha ta'lim (Mukarram Otamurodova).

Pomuqlik "Don Kixot" (O'rolboy Qobil).

Fuqarolikning yuz yili (Abduvohid Hayit).

15-yanvar

Imloviy mukammallikka qachon erishamiz? (Dilbar Dadamirzayeva).

Kamtar olimning kamoli (Bahodir Karim).

Harbiy ta'lim takomillashtirilishi zarur (Mahmud Yo'ldoshev).

Shaxsiy adovat tufayli toifam tushdi (Mavluda Avazova).

"So'z tarkibi o'quv lug'ati" bilan ishlashga tayyormisiz? (Xurshida Bahridinova).

22-yanvar

2018-yili 69,7, 2019-yili esa 59,63. Abituriyentlar bilimi pastlayapti(mi?) (Sohiba Mullayeva).

Tirik qolish buyurilgan (Temur Kattayev).

Kichik janrning katta yuki (Abdunabi Abdiyev).

Maktab korrupsiyadan xoli bo'lishi kerak! (A.Sattorov).

29-yanvar

Attestatsiya: ko'zbo'yamachilik va mas'uliyatsizlikka barham beraylik! (Zilola Madatova).

Mang'itlar tarixi: Edige o'zbekdan Abdulla Oripog'acha (Eldor Asanov).

Qo'rg'on yoqasidagi chinor (Is'hoq Ismoilov).

5-fevral

Toifa-ku kerak! Bilim-chi? (Samad Safarov).

Navoiy asarlarini to'g'ri o'qiyamizmi? (Eldor Asanov).

12-fevral

"O'qituvchilarimiz bilimi repetitorlarnikidan kam emas!" (Niginabonu Shukurova).

"Tol"yi baland "Boburnoma"ning "parol"i (Abduvohid Hayit).

O'zbekiston nega tarixini qayta ko'rib chiqishi lozim? (Eldor Asanov).

Boburshunoslik ilmidagi chin va yolg'onlar (Vahob Rahmonov).

19-fevral

Davlat buyurtma berdi, nega natija sezilmayapti? (Baxtiyor Mengliyev).

O'zbek tili o'lmaydi (Inomjon Azimov).

Yana "ona tili" darsligida muammolar (Ziyodulla Kenjayev).

Zar qadri zargar bilan yoki darslik ko'rga hassa emas! (G'ofir Hamroyev).

Shevalar (Eldor Asanov).

So'z mulkiga sayohat: "Toshnov"dan "tarnov"ga-cha (Nusratullo Jumaxo'ja).

Yangi darslik: E'tirof-u e'tirozlar... (Gulnoza Xoldorova).

26-fevral

Yoshlar buzilib ketyaptimi? (Mahmud Yo'ldoshev).

Abu Mansur Moturidiy ta'limoti (Abdulkhakim Shar'iy Juzjoni).

Tarix bo'laklari bugunimizni shakllantiradi (Eldor Asanov).

Dunyoning eng g'amgin hikoyasi Aykut Erto'g'ul asari (Javlon Jovliyev tarjimai).

4-mart

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili o'qituvchilariga ochiq xat (Dilorom Yo'ldosheva).

Tarixga to'g'ridan qaraylik (Hakim Sattoriy, Anvarbek Muhammadiyev).

11-mart

Bobolar dasturxon (Eldor Asanov).

Bolalar bor-u, bolalik yo'q (Diyora Jalilova).

18-mart

Vahimadan xiyonatgacha bir qadam (Xudoyor Meliyev).

Jannat ichidagi do'zax (Vahob Rahmonov).

Men shunday bahorni bilaman (Humoyun Quvondiqov).

Savol bermayaptimi? Demak, fikrlamayapti! (Sitara Isamuddinova).

Falsafa instituti kerak! (Karim Normatov).

O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir (Guloro Yusupova).

25-mart

Ivan Vasilyevich (chindan ham) kasbini o'zgartiradi (Abduvohid Hayit; davomi 6-may, 20-may, 27-may sonlarida).

Maktab binosi nega MTTga olib berildi? (G'anisher Akbarov).

Suratdagi xotira (Eldor Asanov).

6-may

Klaviaturada 10 ta barmoq bilan ishlashni bilasizmi? (Behzod Hasanov).

Quyosh osmondagi osilib qolgan edi (Hakim Sattoriy).

Ta'lim-tarbiya kodeksi ishlab chiqilsa... (Zafariddin Turdiyev, Umar Meliyev).

Bu asarni o'qib bo'lmaydi! (Charos Yoqubova).

13-may

"Chiqarib tashlangan" mavzular o'quvchida bo'shliq paydo qiladi (Feruz G'afforova).

Millat taqdirida matematika ta'limi (Abdulla A'zamov).

20-may

Poytaxtda ko'rsatkichlar pasaymoqda (Safarali Hamroyev).

Davlat tili muhofazasi qanday bo'lishi kerak? (Inomjon Azimov).

27-may

Salohiyatsiz kadrlar kimning "mahsul"i? (Bozor Xo'jamqulov).

O'zbek tili darsliklari takomillashtirilishi kerak! (Shohsanam Odayeva).

Informatsion epidemiya pandemiyadan kuchliroq (Shahnoza Akramova).

Maktabgacha ta'limda ekologik ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot (Asqar Nigmatov).

Ranglar jilosi (Eldor Asanov).

3-iyun

Xalq ta'limi vaziriga navbatdagi ochiq xat (Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov).

O'qituvchilar "layk" yig'ish bilan ovora (Ulug'bek Po'latov).

10-iyun

Darsliklar masalasida tender e'lon qilinishi kerak! (Niginabonu Shukurova).

"Ta'limda an'anaviylik va novatorlik uyg'unligiga erishish lozim!" (Begzod Xojayev).

9-sinf "Ingliz tili" darsligi mualliflariga ochiq xat (Azizbek Abdumalikov).

Qipchoq shevalarini bilamizmi? (Eldor Asanov).

Lug'atlarda yo'q so'zlar (Husan Karvonli).

17-iyun

Attestatsiya va akkreditatsiya: maqsad va yakuniy xulosa (Ravshan Ergashev).

Ustama olishga kimlar haqli? (Jonibek O'rinov).

Ingliz tili darsliklarida grammatik ma'lumotlar yetarli emas (Iroda Sattorova).

24-iyun

Tojsiz viruslar iskanjasida (Humoyun Quvondiqov).

Grammatikaga yem bo'lgan o'zbek tili (Dilorom Yo'ldosheva).

Qishloq o'quvchilarining aybi bormi? (Nargiza Beknazarova).

Devorga osig'liq ketmon (Dildora Salomova).

OAV tili hayotdan uzilib qolgan (Savlatxon Saidova).

Koronavirus pandemiyasi saboqlari (Nosir Zokirov).

1-iyul

Sinf rahbarini qog'ozbozliklar qiynayapti (Nilufar Oripova).

"Yomon yiqilmadimmi, o'g'lim?" (Mavluda Ahrova, Dilsora Ostonaqulova).

Oliy o'quv yurtiga kirishda 18 ta fandan imtihon bo'lishi kerak! (Qobiljon Qosimov).

8-iyul

Zamonamiz aybsiz aybdorlari (Marhabo Sattorova).

Jamiyatning ta'limga munosabati o'zgarishi kerak (Abduqahhor G'aniyev).

Ta'lim va koronavirus (Abdulkarim To'raxonov).

Misol va timsol (Otauli).

Ta'limdagi "ko'tarish va tushirish tamoyillari" (G'afurjon Muhamedov, Umid Xo'jamqulov).

15-iyul

Haqqingizni talab qiling, muallim! (Rahmatilla Mengirov).

Xalq ta'limini saqlab qoling! (Elyor Qayimov).

22-iyul

Maoshimiz oshdi-yu, ammo (Xosiyat Jumaboyeva).

O'zbekimiz? O'zbekcha gapiring! (Ma'mur Abdulla).

Vazirning bayonoti, maktablarda ona tili darslari va ta'limdagi kolonial meros haqida (Eldor Asanov).

Imlo va grammatika (Dilnoza Najmiddinova).

Zarif cho'ponning gurgungi (Humoyun Quvondiqov).

Tug'ishgan so'zlar (Davlatjon Karimov).

Bir xil talab qo'yish to'g'rimi? (Saodat Tojiyeva).

29-iyul

Kim "zo'r": repetitormi yoki maktab o'qituvchisi?... (Shuhrat Subonov).

Yoshlarga berilayotgan labirint ichidagi imkoniyatlar (Beknazar Qorajonov).

Alisher Navoiy milliarder bo'lganmi? (Iroda Po'latova).

5-avgust

Ta'lim: tarix masalasi va maktab darsliklari holati (Anatoliy Sagdullayev).

"Kandata ipi" yoxud Akutagavaning ilk kashfiyoti (Abdunabi Abdiyev).

Pandemiyada ta'lim (Surayyo Qodirova).

20 minutlik dars (Qobiljon Qosimov).

Bilimdon o'qituvchi ko'p bo'lsa... (Nurmamat Hasanov).

Iqronoma (Fotima Hasanova).

Bolalarga xos va mos maqom kerak (Qahramon Saidov).

12-avgust

Biologiya darsliklaridagi kamchiliklar (Sadoqat Qo'chqorova, Baxtiyor Sheraliyev).

Ko'ngil ko'zlarini ochadigan asar (Jumanazar Beknazarov).

PISA testlari biz uchun yangilikmi? (Iroda Xo'jayeva).

# "Ma'rifat" — 2020" mundariyasi

19-avgust

**Kalavaning uchi qayerda?** (Abdusalom Sattorov).  
**Boshlang'ichda soxta baho qo'yiladimi yoki yuqori sinflarda ta'lim sustmi?** (Zilola Madatova).  
**To'liq masofadan o'qitishga o'tadigan vaqt keldi** (Bahodir Yo'ldoshev).  
**Koronavirusga qarshi kurashishda matematik usullar** (Ilhom Zulfikarov).  
**5-sinf mavzusini 3-sinfga ko'chirishdan maqsad nima?** (Dilbar Jo'rayeva).  
**Bolalarni qiynamaylik, azizlar!** (Umrinisa Ergasheva).

26-avgust

**Zulmatdan nur sari yoxud "oqsayotgan" farmon-u qarorlar** (Yulduz O'rmonova).  
**Dars soati qisqarishi to'g'rimi?** (Nurmamat Hasanov).  
**Ustoz, "normalniy" bolalarga ham dars berasizmi?** (Doniyor Ro'zmetov).  
**"Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo'lmaydi..."** (Munavvar Qayumova).  
**Qizil qirg'inning buyuk qurboni** (Bahromjon Xudoyberdiyev).  
**Germaniyada oily ta'lim olishni xohlayman, nima qilmoq kerak?** (Xurshidbek Qodirov).  
**Bir asrlik hayotning yuki** (Jongul Valiyeva).

28-avgust

**Adabiyot darsi — hayot darsi bo'lmog'i lozim** (Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov).  
**O'tni alanga oldirsiz kosovlar** (Sarvara Eshonxonova).  
**Yozuvchisi yo'q o'zbek bolalar adabiyoti** (Ulug'bek Yodgorov).  
**Billur ko'zgular toptalgan nashr** (Vahob Rahmonov).  
**Otello va Hamlet bir xil obraz...mi?!** (Munavvara Nurmanova).  
**"O'zbek bo'ldi bu qalam!"** (Zulayho Mamatqulova).  
**"Boburnoma"ni anglash saodati** (Amonulloh Muso, Shokirxon Rustam Xo'ja).

3-sentabr

**Maktab repetitorlikdan o'zishi mumkin, agar...** (Zavqibek Mahmudov).  
**Tafakkur — ko'ngil kaliti** (Sultonmurod Olim).  
**O'quvchi hunarmand bo'lmoqchi, o'qituvchida nima ayb?** (Ra'no Nurmetova).  
**Nemis va fransuz tillari chet tili emasmi?** (Alisher Madrizayev).  
**Metodbirlashma rahbarlariga ustama beriladimi?** (Shoira Badalova).

9-sentabr

**O'quv dasturlari uzviyligini ta'minlash** (Abdurahim Nosirov).  
**O'qituvchining cho'ntagiga ko'z tikmang, janob mutasaddilar** (Iskandar G'ozixo'jayev).  
**Masofaviy ta'lim imkoniyatlari** (Normamat Eshonqulov).  
**O'z istagini singdirish — katta xato!** (Go'zal Mamajonova).  
**Abdulla Qahhorni qoyil qoldirgan...** (Abdulla Ulug'ov).

16-sentabr

**Maktab ishchi xodimlari Covidga chalinmaydimi?** (G. Beknazarova).  
**Xalq ta'limi vazirligi diqqatiga: qoraqalpog'istonlik o'qituvchilarga nohaqlik bo'lmoqda!** (Xosiyat Jumanboyeva).  
**"Tarbiya" fani orqali tarbiyalamoqqa kimlar ko'proq haqli?** (Surayyo Qodirova).  
**Tarix so'qmoqlarida** (Humoyun Quvondiqov).  
**"Farzandlarimizdan oldin o'zingizni tarbiyalang!..."** (Kamola Ahmedova).

23-sentabr

**Fizika fanini o'qitishdan maqsad** (Abduqahhor G'aniyev).  
**Fizika darsliklaridan "badarg'a" qilingan atamalar** (Solay Otoboyev).

**Yangilanayotgan fizika va ortda qolayotgan ta'lim** (Obloqul Quvondiqov).

30-sentabr

**Ustozlik nomiga dog' tushirmang, hamkasb!** (Shuhrat Subonov).  
**Ustoz maktabi sabog'i** (Gulchehra Mamanboyeva).

1-oktabr

**Savri Niyozova maktabi** (Yulduz Ortiqova).

7-oktabr

**Aytilmay qolgan rahmatlar, so'ralmagan uzrlar...** (Sanobar To'laganova).  
**Bo'lakcha inson edi...** (Abdulla Ulug'ov).  
**"Ko'rib tursak edi ko'zlarimizni"** (Risalat Jumanazarova).

14-oktabr

**O'quvchining natijasi — maktabning bahosi** (Nasiba Erxonova).  
**"Onlayn olimpiadalar "omadlilarniki"mi?"** (Dilbar Normurodova).  
**Direktor, nega darsingizni o'tmayapsiz?** (Norchuchuk Normurodova).  
**Darslik tuzgan (yozgan) dotsentlar** (Mahmud Yo'ldoshev).  
**"Ma'rifat"ga samimiyat keltirgan rahbar** (Halim Sayid).

21-oktabr

**Darslik yakkahokimligi — ijodiy fikr kushandasi** (Baxtiyor Mengliyev).  
**Maktabda grammatika o'qitilishi kerakmi?** (Dilnoza Najmiddinova).  
**Til tilimoti texnologiyasi** (Rahimboy Jumaniyozov).  
**Yaxshi darslik — yarim muvaffaqiyat** (Asror Mo'min).  
**Qaytish (hikoya)** (Zulayho Mamatqulova).  
**Tiriko'rim** (Husan Karvonli).

28-oktabr

**Niyatlarimizga gard yuqtirmasak Hazrat Navoiy duolari ijobat bo'lg'ay** (Akrom Malik).  
**Fransuz va nemis tili o'qituvchilari nima qilsin?** (Qunduz Ro'zmetova).  
**Til bayramining ertasi kuni** (Humoyun Quvondiqov).  
**Davlat bilan mamlakatning farqi nimada?** (Asqar Nig'matov).

4-noyabr

**Adolat! Fidoyilik! E'tibor! Talabchanlik! Natija!** (Rag'bat! Qorako'l tumanidagi xalqaro matematika maktabi yutuqlarining siri) (Guluro Yusufova).  
**Xorijiy til faqat ingliz tili degani emas!** (Xurram Rahimov).  
**Ta'mirdan yangidan qurilishi arzoniga tushadigan maktab** (Xolnisa Rahmonqulova).  
**Shahid ketgan mudarris** (Zuhra Hamroyeva).  
**Shaxmat fidoyisi edi!...** (Husan Karvonli).

11-noyabr

**Har bir o'qituvchiga imtiyoz kerak!** (Zilola Madatova).  
**O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining asosiy vaqti xalq ta'limi bo'limlarida o'tib ketmoqdammi?** (Ulug'bek Po'latov).  
**Robototexnikani maktabda o'qitish vaqti keldi** (Inobat Ravshanova).  
**Ta'limda tanqidiy fikrlash kerakmi?** (Abduqahhor G'aniyev).  
**Devonimda tartib yo'q** (Abdurahmon Pirimqulov).  
**Xayrixon (hikoya)** (Dilora Xoliqova).

18-noyabr

**Bolalarimiz rus tilini o'rganishga majbur emas!** (Gavhar Usmonova).  
**Tarix darsliklaridagi chalkashliklar** (Tohir Rasulov).  
**Keksalik qanday davr?** (Musharraf Salohiddinova).  
**Texnologiya fani ikki guruhga bo'lib o'qitilsin!** (Hafiza Rashidova).

25-noyabr

**Viloyat axborot-resurs markazlari o'gaymi?** (Anvar Yo'ldoshev).  
**"Layk bosvoring!"** (Jiyan).  
**Xorazmlik birinchi grossmeyster** (Husan Karvonli).  
**Oqtovning narisida, Qoratov berisida** (O'ljaboy Qarshiboy).  
**"Otaning ilgida zamon bilan vaqt"** (Dilorom Yo'ldosheva).  
**Begonalashuv va xudbinlikni qanday yengamiz?** (Xurshid Mirzaahmedov).  
**"Alkimyogar" — komil inson g'oyasining g'arbdagi ifodasi** (Gulnoza Xoldorova).

2-dekabr

**Ta'lim va tarbiya uyg'un bo'lishi kerak, ayro emas!** (Humoyun Akbarov).  
**Sovuq o'tganda quloqqa dars kiradimi?** (Xolnisa Rahmonqulova).  
**Ming dollar masalasi nima bo'ldi?** (Malimning uli).  
**Sun'iy intellekt va ta'lim** (Jamshid Qarshiyev).  
**Zamonaviy o'qituvchi qiyofasi** (Jahongir Qurbonov).  
**"Jahongiri bexonumon yurt edi bu"** (Mansurxon Toirov).

8-dekabr

**Ajrim (hikoya)** (Islom Ibdulla).  
**Ikki qismli kundalik va tabaqalashtirilgan ta'lim** (Madinabonu Rahimova).  
**Buyuk ehtirom** (Shahina Jo'rayeva).  
**Siz qachon Trailblazer minasiz, domlajon?** (Otsiz).

11-dekabr

**Mangu yashashga qodir ona tilim** (Dilorom Yo'ldosheva).  
**Ey so'z, ne balo ajab guharsen...** (Dilnoza Berdiyeva).  
**Ona tili va adabiyot hamda o'zbek tili — alohida fanlarmi?** (Dilorom Ergasheva).  
**Matematikani zo'r o'zlashtirish uchun...** (Sadoqat Asadova).

**O'zbek tili va adabiyotini yoki o'zbek filologiyasi?** (To'lqin Xoljo'rayev, Azamat Ermatov).  
**O'qish savodxonligini sinovdan o'tkazish uchun PIRLS namunaviy testlari** (Dildor Nurmuhammedova).  
**"Niqob", "maska" yoki "og'izbog'ich"** (Dilrabo Yusufova).  
**"I" va "i"lar** (Odiljon Umarov).

16-dekabr

**Maktabda sport tali yo'q bo'lsa o'qituvchi aybdormi?** (Ulug'bek Po'latov).  
**Bola maktabdan nima olib ketishi kerak?** (Hilola Xudoymurodova).  
**Talabalarga chegirma bor, lekin...** (Go'zal Otajonova).  
**Bolaga qancha pul berish kerak?** (Jo'raqul Davlatov).  
**Kitob bilan "o'ynang", bolalar!** (Odinaxon Abdurahimova).  
**Samarqandning dorilomon dorilfununi — o'ziga bek nomli millat ori, g'ururi** (Baxtiyor Doniyorov).

18-dekabr

**Tanqidiy fikr va tanqidbozlik** (Dildor Nurmuhammedova).  
**Muz "haykalcha"lar** (Tog'a).  
**Fidoyi olmonshunos va ibratli tarjimon** (Elmirza Erkayev).  
**Dardimiz — kitob** (Nargiza Isaeva).  
**Urush tortib ololmagan baxt** (Roza Qurbonova).

23-dekabr

**Kundalik elektron tizimi: kelajakka qadam** (Niginabonu Shukurova).  
**10-11-sinflarga qanday asarlar o'qitish kerak?** (Gulniso Tolibova).  
**O'qituvchi ham brend bo'lishi kerak!** (Mukofat Boboyeva).  
**Jinsiy tarbiya darslari kerakmi?** (Kamola Ahmedova).  
**"Tong yulduzi"dan boshlangan yo'l** (Bahodir Rahmonov).

Ehtirom

# Tilshunoslar sardori

Yetuk tilshunos, umrini tilshunoslik ilmi taraqqiyotiga baxshida qilgan fidoyi olim, o‘zbek tilining haqiqiy jonkuyari filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov 70 yoshga to‘ldi.

Ustoz Nizomiddin Mahmudov 1951-yil 9-yanvarda Namangan viloyati Pop tumanidagi G‘urumsaroy qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni oltin medal bilan bitirib, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning o‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga qabul qilindi. Universitetni tugatgach 1974–1981-yillarda Toshkent davlat madaniyat institutida o‘qituvchi, 1981-yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida o‘qituvchi, keyinchalik kafedra mudiri, 1989-yildan o‘zbek va qozoq filologiyasi fakulteti dekani lavozimlarida ishlagan. 1996–2000-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida yetakchi konsultant, bosh konsultant, 2000–2005-yillarda O‘zbekiston teleradiokompaniyasi raisining birinchi o‘rinbosari sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 2005–2010-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasini mudiri bo‘lgan. 2010–2016-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti direktori, 2016–2017-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor (O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti direktori) lavozimlarida ishlagan. Ayni paytda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori ilmiy-tekshirish instituti direktori. U ancha yillardan beri mazkur institut huzurida tashkil topgan ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashni boshqarib keladi.

Nizomiddin Mahmudov 80 dan ortiq darslik, qo‘llanma, lug‘at, monografiya, risolalar, 400 ga yaqin maqolalar muallifi. Ustoz shu kunga qadar 6 fan doktoriغا ilmiy maslahatchi, 20 dan ziyod fan nomzodi va falsafa doktoriغا ilmiy rahbarlik qilgan. Bugungi kunda ham uning o‘nlab shogirdlari ilmiy tadqiqot olib bormoqda. Olim 30 dan ziyod tadqiqotlarga rasmiy opponent bo‘lgan.

Bundan 10 yil muqaddam professor A.Nurmonov ustoz haqida shunday fikr bildirgan edi: “Har qanday fan favqulodda qobiliyatga ega bo‘lgan ijodkor allomalarining kashfiyotlari tubayli rivojlanib, boyib boradi. Ular Abdulla Qahhor ta‘biri bilan aytganda, ilm eshigini taqilatib emas, sharaqlatib ochib kirib keladi. Bunday zotlar turli yo‘nalishlarda qalam tebratib, serqirra ijod sohiblari bo‘lsalar ham, ma‘lum bir yo‘nalish ular ijodining gultog‘iga aylanadi. O‘zbek tilshunosligida ana shunday allomalardan biri filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudovdir”.

N.Mahmudov o‘zbek tilshunoslik ilmiغا juda yosh kirib keldi. 27 yoshida nomzodlik, 33 yoshida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. U o‘zbek tilshunosligining sintaksis, morfologiya, leksikologiya, leksikografiya, lingvopoetika, sotsiolingvistik, lingvokulturologiya, nutq madaniyati yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur izlanishlar olib borgan.

Olimning “O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya” (1984), “Til” (1998), “Tilimizning tilla sandig‘i” (2012), “Til tilsimi tadqiqi” (2017) kitoblari hamda hammualliflikda chiqargan “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi” (1992), “Til va madaniyat” (1992), “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” (1995), “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” (2013), “O‘zbek tili punktuasiyasining asosiy qoidalari” (2015) asarlari tilshunosligimizda muhim o‘ringa ega.

“Til tilsimi tadqiqi” nomli monografiyasidan o‘rin olgan “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” maqolasida tilning zamonaviy ilmiy paradigmalari, jumladan, antroposentrik tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlari xususida nazariy ma‘lumot berilgan bo‘lib, ushbu maqola o‘zbek tilshunosligida yaqin o‘n yillikdagi eng ko‘p o‘qilgan maqolalar qatorida turadi.

Zukko olimning “Til tilsimi tadqiqi” nomli ilmiy risolasi o‘zbek tilining jamiyat hayotida tutgan mavqeyi, uning kechagi kuni va buguni, xalqaro tillar tizimidagi o‘rni, alifbo, imlo, so‘z o‘zlashtirish masalasi, tilning milliy-madaniy xususiyatlari kabi til muammolari, uning ko‘z ilg‘amas sir-u sinoatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan qimmatli asardir. Kitobning “Til nufuzi” deb nomlangan bobida milliy masalani, biron darajada bo‘lsin, til siyosatisiz hal qilish mushkuligi haqida chuqur mulohazalar aks etgan. U sho‘rolar va sotsialistik tuzum davrida o‘zbek tilining jamiyat hayotida tutgan mavqeyini tahlil qilar ekan, haqli tarzda bu davrda olib borilgan til siyosatining “nomaqbul va g‘irrom” siyosat bo‘lganligini, boshqa tillar qatori o‘zbek tili ham undan ko‘p aziyat chekkanini ro‘y-rost aytadi. U milliy tillarning adabiy me‘yorlari qanday bo‘lishi kerakligi, hatto ularda nechta kelishik bo‘lishi lozimligi haqida oldindan ko‘rsatmalar berilganligini hukmron til siyosatining mohiyatan konstruktiv bo‘lmaganligida, deb izohlaydi.

Muallifning milliy tilimizning bugungi kuni haqidagi o‘ylari bilan tanishar ekanmiz, yurtimizda olib borilayotgan til siyosati o‘zbek tilining rivojlanishiga, badiiy-tasviriy imkoniyatlarining yanada kengayishiga xizmat qilayotganidan faxrlanish tuyg‘usini anglab yetamiz. Istiqloq tubayli tilimizning “qorong‘i kechadan kufuduzga ko‘chgani” ayni haqiqat. Bu muammo risolada chuqur tahlil etilgan, xususan, o‘zbek tili va tilshunosligining rivoji uchun davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, yaratilgan imkoniyatlar, bu borada amalga oshirilgan va kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar xususida keng mulohazalar bayon etilgan.

Risolada olimning tilning mukammal tadqiqi yo‘nalishlari haqidagi qarashlari, til talqinlarida muntazamlilik va mutanosiblik ehtiyoji, o‘zbek tili lug‘at boyligining rivojida faollashgan jaryonlar, turkiy tillarda mushtarak so‘zlar



masalasiga munosabat kabilar o‘z ifodasini topgan. Muallif tilshunoslikda shakllangan ilmiy paradigmalarga tavsif berar ekan, qiyosiy-tarixiy paradigmaning shakllanish davri XIX asr bilan belgilanishiga jiddiy e‘tirof bildiradi. U XI asrda buyuk turkiyshunos olim Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Devonu lug‘oti-t-turk” asari orqali bu paradigмага tamal toshi qo‘yilganligini e‘tirof etish to‘g‘riligini qayd etadi.

Olimning ushbu kitobida o‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish masalasiga ham o‘tkir nigoh bilan munosabat bildirilgan. Muallif so‘z o‘zlashtirishda o‘zlashtiruvchi tildagi olamning lisoniy manzarasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatilishi, har qanday xorijiy o‘zlashmaga g‘ov qo‘yishga urinaverish to‘g‘ri emasligi, so‘z o‘zlashtirishning obyektiv asoslarga ega bo‘lishi yoki subyektiv sabablar bilan bog‘lanishi haqida mulohaza yuritilgan. Ammo so‘z o‘zlashtirishda muayyan me‘yorlarga rioya qilish lozimligi ham ta‘kidlangan. Olimning fikricha, boshqa tildan me‘yorni saqlagan holda olinadigan so‘z oluvchi tilning fonetik qonuniyatlari moslashtirilishi maqsadga muvofiq. Mana shundagina “tilning yaxlit milliy tabiati zararlanmaydi, til lug‘at boyligining umumiy milliy tusiga katta ta‘sir bo‘lmaydi, tilning milliy tarovati sog‘lom saqlanadi”.

N.Mahmudovning hammualliflikda 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-sinflar uchun yaratgan “Ona tili” darsliklari, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quv muassasalari uchun yozgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklari yosh avlodni ona tilimiz imkoniyatlari hamda latofatidan bahramand qiladi. Oliy ta‘limning bakalavriat bosqichi uchun yozilgan “O‘qituvchi nutqi madaniyati” darsligidan bugungi kunda pedagogika yo‘nalishidagi ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida foydalanilmoqda. Salkam 30 yildirki, respublikamizdagi barcha ish yuritish hujjatlari Nizomiddin Mahmudov hammuallifligida yaratilgan “Davlat tilida ish yuritish” nomli qo‘llanmadagi yo‘l-yo‘riqlar orqali yozilmoqda. 2020-yilda ushbu qo‘llanmaning to‘ldirilgan, takomillashtirilgan 9-nashri chop etildi.

Ustoz o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish bo‘yicha tuzilgan hukumat

komissiyasi a‘zosi sifatida ham qizg‘in ish olib bormoqda. 1989-yildan boshlab o‘n yildan ortiq vaqt davomida O‘zbekiston televideniyesida “Tilga e‘tibor” ko‘rsatuvining muallifi va boshlovchisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda mustaqil O‘zbekistonimizda davlat tilining mavqeyini oshirish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2019-yildagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yildagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari tag‘risida”gi farmonlarida belgilangan vazifalarni bajarishda Nizomiddin Mahmudov va u boshchilik qilayotgan O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bosh-qosh bo‘lmoqda. Ayni paytda mazkur institut olimlari tomonidan “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ning lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvidagi varianti nashrga tayyorlanmoqda, “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”ni yaratish ustida ish olib borilmoqda.

N.Mahmudov so‘zning har bir ma‘nosini teran his qiladigan insondir. U xoh ilmiy nutq, xoh publitsistik nutq bo‘lsin, jumla yaratishda so‘zning nutqiy imkoniyatlaridan to‘la foydalana oladigan nodir iste‘dod egasidir. “Til tilsimi tadqiqi” asaridan olingan ushbu parchalarga e‘tibor qarating: “Odamzod paydo bo‘libdiki, o‘zining, o‘zi kabilarning va tashqi dunyoning sinoatlarini o‘rganish bilan mashg‘ul. Azaldan murakkab va muntazam bilish jaryonida sezgi, idrok va aql deng quvvatlar harakatda bo‘ladi, bu quvvatlarning joni esa tildir. Dunyoni bilishdai bu intihosiz jaryonlarda tolmas va tirik qurol bo‘lmish til tinim-siz qayrilib, mukammallashib boradi”. Yoki “Odam bilan bog‘liq hodisalar orasida tilday murakkab, muhtasham va muhtaram boshqa hodisa yo‘q. Uning murakkabligi tilsim qadardir, uning muhtaramligi ona rutbasiga mutanosibdir. Nainki, oqni qoradan ajratmoq, balki qilni qirq yormoq qudratiga sohib tafakkur ham uningsiz mohiyatga ega emas”. Ushbu jumalarni ilmiy nutqda bemalol va muvaffaqiyatli qo‘llash faqat ustozga xos dastxatdir. Shu paytgacha o‘zbek tilshunosligida ilmiy nutq sodda ifoda usuliga ega, ta‘sirchanlikdan xoli edi. Nizomiddin Mahmudovni o‘zbek ilmiy uslubiga badiiy ifodalarni olib kirib, uslublar hamkorligini ta‘minlagan olim sifatida e‘tirof etish mumkin.

Ustoz bag‘rikeng olim, u hayotning ikir-chikirlariga umuman e‘tibor bermaydi. Unga qarab bir oddiy haqiqatni anglash mumkin: agar odam tabiatan “yirik” bo‘lsa, olim sifatida ham buyuk bo‘ladi; agar insonning aql-zakovati mayda-chuyda maishiy narsa tahlili bilan ovora bo‘lmasa, u olamshumul kashfiyotlar qila oladi. Ustozning bu xislatlarini ilm yo‘lini tanlagan yoshlarga namuna qilib ko‘rsatish mumkin. Nizomiddin Mahmudovning millat o‘zligini belgilab beruvchi til ilmining bilimdoni bo‘lganligi o‘zbek xalqi, o‘zbek tilining baxtidir.

Durdona XUDOYBERGANOVA, filologiya fanlari doktori, professor  
Durdona LUTFULLAYEVA, filologiya fanlari doktori, professor  
Muhayyo HAKIMOVA, filologiya fanlari doktori

## Ta'lim muassasalarida

## "27 nafar o'quvchimiz talaba bo'ldi"

Ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasi vatanparvar, zamonaviy bilimga ega, jamiyatda munosib o'rin egallashga qodir va, albatta, komillikka intiladigan avlodni voyaga yetkazishdir.

Nishon tumani Nuriston shaharchasidagi 35-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi 14 yildirki, shu maqsad yo'lida ertamiz egalari bilim berib kelmoqda. 2006-yilda 844 o'ringa moslab tashkil etilgan maktabimizda dastlab 700 o'quvchi 47 nafar o'qituvchidan saboq olar edi. Hozir esa bilim dargohimizda 1807 nafar o'quvchiga 125 nafar pedagog bilim sirlarini o'rgatyapti.

Ilim-fan, texnika va ishlab chiqarish tez sur'atlarda rivojlanayotgan davrda ta'lim sifatini oshirish o'quv muassasalarining eng muhim vazifasiga aylangan. Bu esa o'z o'rnida tizimning har bir xodimi, shuningdek, o'qituvchilar zimmasiga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi. Negaki, rad qilib bo'lmaydigan bir haqiqat bor – ta'lim sohasida qilingan barcha sa'y-harakatlar o'qituvchining mehnati orqali o'z natijasini ko'rsatadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, kelajagimiz oldidagi javobgarlik, e'tibor-u e'tirofga munosib tarzda harakat qilish talab etiladi.

Jahondagi rivojlangan davlatlar ta-

rixiga nazar tashlasak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi maktabdir. Maktabning qudrati esa unda dars berayotgan o'qituvchilarning malakasi bilan baholalanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, maktabda faoliyat yuritayotgan 125 pedagogdan 110 nafari oliy ma'lumotli, shuningdek, 10 nafar ustoz oliy toifaga ega. Ularning zamon talablari asosida ta'lim berayotgani, o'qitish jarayonida yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llayotgani natijadorlikka, ilmiy sahoiyat yuksalishiga zamin yaratmoqda.

Fizika-matematika fanlariga ixtisoslashgan maktab 14 yillik faoliyati davomida to'xtovsiz izlanishlar sabab qator yutuqlarga erishdi. Jumladan, fan olimpiadalari, turli respublika ko'rik-tanlovlari o'quvchilari yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib kelmoqda.

2019-2020-o'quv yilida maktabni

tugatgan 158 nafar bitiruvchidan 62 nafari turli milliy va xalqaro universitetlarga qabul qilindi. Xususan, Shahodat Moyliyeva rahbarlik qilgan 11-"A" sinfning 35 nafar o'quvchisidan 27 nafari talabalik baxtiga muassar bo'ldi. 2020-yili bitiruvchilarning o'qishga kirish ko'rsatkichi bo'yicha ushbu maktab tuman miqyosida 1-o'rinni egalladi.

— Maktabimizda har oyda o'quvchilar bilan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test sinovlari o'tkaziladi, — deydi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Shahridin Ismoilov. — Natijalar bilan tanishib past ko'rsatkichli o'quvchilar bilan alohida suhbat olib boriladi. Muammo va tushunmovchiliklar boisini aniqlaganimizdan so'ng samaradorlikni oshirish usullaridan foydalanamiz. Xususan, ota-onalar maslahati asosida farzandlarini o'zlari qiziqqan yoki qiyinchilikka uchrayotgan yo'nalishi bo'yicha fan to'garaklariga jalb qilamiz. Bu kabi to'garaklar muntazam bepul shaklda faoliyat yuritadi. Abiturient o'quvchilarimizga ham shu to'garaklar vositasida fanlar chuqur o'rgatiladi, OO'Ylarning kirish imtihonlariga tayyorlab boriladi. O'tgan o'quv yillariga qaraganda o'qishga kirish ko'rsatkichimizning yaxshilanishiga maktabda variativ sinflarga ko'proq e'tibor qaratilayotgani, ish faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilgani ham sabab bo'ldi.

Risolat MAXSUMOVA,  
jurnalist

Shahodat MOYLIYEVA,  
Nishon tumanidagi 35-IDUM  
rus tili fani o'qituvchisi



## MAKTABIM

Bag'ringa ilk qo'yganda qadam,  
Tuydim qaynoq mehningni shu dam,  
Quvonch, orzularim bir olam,  
Maktabim, jonimga suyuksan,  
Qodiriy bobomdek buyuksan!

Yurtboshimning istagi ungan,  
Ajdodlarim nafasi inggan,  
Ustozlarim mehnati singgan,  
Maktabim, jonimga suyuksan,  
Qodiriy bobomdek buyuksan!

Ijod bog'im, milliy koshonam,  
Shahrimdagi nodir durdonam,  
Fitrat, Cho'lpon kabi yagonam,  
Maktabim, jonimga suyuksan,  
Qodiriy bobomdek buyuksan!

Jonkuyardir har bir muallim,  
Mehr bilan beradi ta'lim,  
Senla ravon maqsad yo'llarim,  
Maktabim, jonimga suyuksan,  
Qodiriy bobomdek buyuksan.

Ulashasan qalbinga ziyo,  
Mehridaryo onamsan go'yo,  
Sen bilan anglanar keng dunyo,  
Maktabim, jonimga suyuksan,  
Qodiriy bobomdek buyuksan!

Gulsanam MAMANABIYEVA,  
Abdulla Qodiriy nomidagi Ijod maktabining  
7-sinf o'quvchisi

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlasak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi maktabdir.

**Karimov Ilhom Esonovichning 11.00.01 — Tabiiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "Jizzax suv ombori ta'siri doirasidagi geotizimlarning landshaft-ekologik holatini baholash" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMUning Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti binosi.  
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: ikgeografiya.nuuz@mail.ru

**Namozov Jo'rabek Abdurazovichning 11.00.02 — Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "Samarqand viloyati yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy-geografik jihatlari" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMUning Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti binosi.  
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: ikgeografiya.nuuz@mail.ru

**Mahmudov Muhammadisoil Muhiddinovichning 11.00.02 — Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "Andijon viloyatida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy-geografik xususiyatlari" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMUning Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti binosi.  
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: ikgeografiya.nuuz@mail.ru

Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 110-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashgan maktab tomonidan 2019-yil 19-iyunda Kurbanov Islyam Asanovichga berilgan UM №0263224 raqamli attestat yo'qolgani sababli

**BEKOR QILINADI.**

**Utavov Ne'matullo Egamqulovichning 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Chigirtkalarga qarshi kimyoviy preparatlarni o'ta kam hajmda (umo) purkashning ilmiy asoslarini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 21-yanvar kuni soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag\_info@edu.uz

**Mirdjurayeva Nargiza Ravshanovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Asab tizimining perinatal zararlanishi uzoq muddatli oqibatlari-da kognitiv faoliyatni o'rganishda qiyosiy yondashuvlar" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-yanvar kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy. Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

**Mirzayeva Dilnoza Farxadovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "OIV infeksiyasi bilan kasallangan bolalarda asab tizimi zararlanishining klinikasi va differensial diagnostikasining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy. Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Izoh: O'tkazilayotgan himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

16 Bola chet tillar olamiga qancha erta "sho'ng'ishni" boshlasa, ularni osonlik bilan o'rgana olishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

# "Nemis onlayn bolalar universiteti"

bolalarni qiziqtirgan savollarga javob topishda ko'maklashadi



Maktabda nemis tilini to'rtinchi sinfdan boshlab, yetti yil o'qib-organman. Oliy o'quv yurtiga kirishda nemis tili fanidan imtihon topshirib, "yaxshi" baho olganman. Undan keyin bu tilni o'rganish universitetdagi boshqa fanlar "soyasida" qolib ketdi. Bugun esa maktabda nemis tilidan "alo" bahoga o'qiganmiz, degan xotira bor, xolos.

Yaqinda poytaxtimizdagi Gyote instituti tomonidan o'tkazilgan tadbirda qatnashib, bu tilning go'zalligini yana xotiramda jamladim. Nazarimda, o'zbek va nemis xalqlari ish uslubida, insonlar harakatida, hatto tilida ham o'xshash tomonlar borligini kashf etdim.

O'zbek bolalarining ham sevimli maskaniga aylanib ulgurgan Gyote institutidagi "Nemis onlayn bolalar universiteti" dasturi bilan yaqindan tanishaman. Dastur g'oyasi bolalarning yanada zukko va bilimdon bo'lishini nazarda tutadi. Unda "Haydovchisiz mashina qanday yuradi?", "Nega chig'anoq ichida shovullash eshitiladi?", "Samolyot va tunukali banka bir-biri bilan qanday bog'liq?", "3D-printer qanday ishlaydi?" singari savollarga bolalar javob izlashadi. Shu bilan ularda nemis tilini o'rganishga ishtiyoq oshadi.

### Ixtiyoriylik va erkinlik ustuvor

Bolalarni jalb etgan bunday mashg'ulotlar Germaniyada juda keng tarqalgan, deydi Toshkent shahridagi Gyote institutining Til



### bo'limi boshlig'i Dildor MUHAMMADJONOVA.

Deyarli har bir oliy o'quv yurtida taniqli o'qituvchi va professorlar tomonidan 8 dan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun dars mashg'ulotlari o'tkaziladi. Biroq bolalar qiyin formulalarni yodlashga va imtihon topshirishga majburlanmaydi. Aksincha, professor va o'qituvchilar bolalarga tushunarli tarzda va o'yin shaklida murakkab tabiat hodisalarini tushuntirib borishadi. Shu jihatdan bolalar universitetlarining tuzilishi oddiy universitetlarga juda o'xshab ketadi.

### Mukofotlar va bejlar

Bu dastur doirasida bolalar uchta fakultetda ta'lim olishadi. Har bir fakultetda muayyan mavzularda ma'r-

zalar o'qiladi. Aniqrog'i, inson, tabiat, texnika fakultetlari faoliyat yuritadi. Dastur davomida maktab dasturidan ancha farq qiladigan va noodatiy vazifalarni bajarish orqali yosh talaba-bolakaylar bejlar to'playdi. Mukofot tarzida to'plangan bejlar esa ularning universitetda ilmiy unvonni qo'lga kiritishiga yordam beradi. Bu yerga o'z istagi va qiziqishi tufayli kelgan bola universitetni professor unvoni bilan tugatadi. Undan avval esa institutning yosh talabasi bakalavr, magistr va fan doktori unvonini olgan bo'lishi kerak.

Albatta, bu puxta o'ylab chiqilgan tizim zamonaviy didaktikaning eng muvaffaqiyatli usullaridan biri bo'lgan "gamifikation" deb ataladigan usulga asoslanadi.

Mazkur dasturga asosan faoliyat yuritadigan universitet, haqiqatan, hamma uchun ochiq bo'lishi maqsadimizdir.



deydi Toshkent shahridagi Gyote institutining Ta'lim sohasidagi hamkorlik bo'limi xodimi Dilorom ISMATULLAYEVA.



Chunki hozirgi jamiyatimizda bunga erishish uchun birgina yo'l bor, xolos - onlayn, ya'ni internet tarmog'i orqali. Shundaygina har bir bola, hatto mamlakatning chekka joylarida bo'lsa ham, bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, bolalar zamonaviy axborot va texnika vositalaridan foydalanishni maroq bilan o'rganishadi, ya'ni ular ulg'aygunlariga qadar mediasavodxonlikka ega bo'lishadi. Maktabda mediasavodxonlik darslari hozirgacha o'qitilmaydi va shu sababli, afsuski, axborot va texnik vositalardan foydalanuvchilarning aksariyatida bu sohada bilim yetarli darajada emasligi ko'zga tashlanadi.

### Ta'limdagi mustaqillik

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bola chet tillar olamiga qancha erta "sho'ng'ishni" boshlasa, ularni osonlik bilan o'rgana olishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Zamonaviy didaktika chet tillarni bizga odat bo'lib qolganidek o'quv kitoblaridan emas, balki "CLIL" (Content and Language Integrated Learning) deb atalgan usul

yordamida o'rganish qiziqarilroq va osonroq kechishini isbotlagan. Bu g'oya juda oddiy. Bolaga yangi vazifalar birdan chet tilida beriladi. Masalan, bola biror fizikaviy tajribani o'zi mustaqil o'tkazadi. Vazifalarni mustaqil bajarib boshlaydi va natijalarni nemis tilida yozadi.

Germaniya juda boy ilmiy an'analarga ega. Bu yerda kitob bosadigan uskuna, elektr lampochka, telefon, dinamo, avtomashina, dizel motori va Mp3 formati o'ylab topilgan. Vakuum va rentgen nurlari aniqlangan va nisbiylik nazariyasi asoslab berilgan. Demak, mana shunday muvaffaqiyatlarga erishishda bolaga berilgan nisbatan ixtiyoriy-erkinlik, majburiy-mustaqillik asosiy omil bo'lgan.

Hozir esa nemis tili dunyoda ikkinchi o'rinda turgan ilmfan tili sifatida tan olinadi. Shuningdek, Germaniya jahonda ilmiy tadqiqotlarni moliylashtirish masalasida uchinchi o'rinda turadi va fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Bu esa alohida mavzu. Bu haqda Gyote instituti faoliyati bilan bog'liq keyingi maqolalarda o'qiyisiz.

Ma'murjon QIYOMOV



Suratlarni Burhon RIZOQULOV olgan.

BIZNING UNIVERSITETIMIZDA O'Z SIZLARNI KARYERVA KARYERANGNI BOSHLAI 8 NAJIM UNIVERSITETI

1-FAKULTET FAKULTETLARDAN BIRINI TANLA

2-ORDAM VAZIFALARNI BAJAR VA BEJLARNI OL

3-ORDAM BARCHA MUKOFOTLARNI QO'LGA KIRIT VA ILMIY DARAJAGA EGA BO'L

1-FAKULTET VYBERI ODIN IZ FAKULTETOV

2-ORDAM VYPOJNI ZADANIJA I POLUCHI BEJDIJA

3-ORDAM SOBERNI VSE NAJRAJDI I POLUCHI NAJCHIJU STEPEJ

NEMIS ONLAYN BOLALAR UNIVERSITETI

HEMECKIJ DETSKIJ ONLAIN-UNIVERSITET

HAMKORLAR / PARTNERI

WDR, Goethe Institut

# Marifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

### Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150, V-4498. Tiraj 7683. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

### TELEFONLAR:

qabukona — (71) 233-50-55;  
kotiyyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirish shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

### MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov. Navbatchesi muharrir: Mahmud Rajabov. Navbatchesi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Korxonada manzill: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.